



# O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON: YAXSHI QO‘SHNICHILIK, STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI IZCHIL MUSTAHKAMLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-mart kuni oliy darajadagi norasmiy uchrashuv o‘tkazish uchun amaliy tashrif bilan Olmaota shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kutib oldi. O‘zbekiston yetakchisi sharafiga faxriy qorovul saflandi va ikki mamlakat bayroqlari ko‘tarildi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston — eng yaqin qo‘shni hamda ittifoqchi davlatlardir. Ularning munosabatlari umumiy do‘stlik va yaxshi qo‘sh-

nichilik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda.

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev “Medeu” tog‘-chang‘i klasteriga tashrif buyurdilar.

Davlatimiz rahbariga sel-suv tosh-qlinlaridan himoya qilish maqsadida dengiz

sathidan 1750 metr balandlikda barpo etilgan “Medeu” tog‘onining yaratilish tarixi va arxitekturaviy xususiyatlari haqida so‘zlab berildi.

“Medeu” tog‘onining tepasiga 842 pog‘onadan iborat “Salomatlik zinapoyasi” olib boradi. 2011-yilda tog‘on yonida “Shimbuloq” tog‘-chang‘i maskaniga etuvchi 4,5 kilometr uzunlikdagi dor yo‘li qurilgan.

“Medeu” sport majmuasi 1972-yilda barpo etilgan bo‘lib, dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgan.

Majmua muz maydonining yuzasi 10,5 ming kvadrat metr bo‘lib, bir vaqtda 3 ming nafargacha kishini qabul qila oladi. Har yili unga 400 mingdan ortiq mehmon tashrif buyuradi.

Bugungi kunda majmua sport, turizm va madaniyat klasteri sifatida faoliyat yuritmoqda. Sport musobaqalari, ommaviy konki uchish, madaniy tadbirlar, festivallar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

2011-yilda bu yerda VII qishki Osiyo o‘yinlari, 2017-yilda Butunjahon Universiada musobaqalari o‘tkazilgan.

Tanishuv chog‘ida O‘zbekiston va Qozog‘iston Prezidentlari yosh figurali uchuvchilarning ko‘rgazmalari tomosha qildilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Olmaota shahrida norasmiy uchrashuv o‘tkazdilar.

Ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida O‘zbekiston — Qozog‘iston yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil mustahkamlash masalalari atrofida ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari bir-birini hamda qardosh xalqlarimizni bahor ayyomi Navro‘z va yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti bilan samimiy qutladilar.

O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yuksak darajaga ko‘tarilgan alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Barcha darajalarda faol muloqotlar olib borilmoqda. Tovar aylanish hajmi yil boshidan buyon 14 foizga oshdi, umumiy qiymati 4 milliard dollardan ziyod investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi, yaqin hududlararo

aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuv rivojlanmoqda.

Davlat rahbarlari O‘zbekiston va Qozog‘iston Bosh vazirlari o‘rinbosarlarining o‘zaro savdoni ko‘paytirish, mashinasozlik, elektrotexnika, neft-gaz, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlarda yetakchi korxonalarining kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo‘yicha ko‘riyotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarini tingladilar.

Prezidentlar sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha uzoq muddatli dasturni shakllantirish, mintaqaviy ahamiyatga ega infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdilar.

Joriy yilda Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirish bo‘yicha amaliy ishlarni boshlash, qo‘shma tashqi savdo kompaniyasi faoliyatini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibi, shu jumladan, yaqin oylarda O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Markaziy Osiyo sammitlariga tayyorgarlik yuzasidan fikr almashildi.

Bo‘ljak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv har doimgidek do‘stona va ischanch ruhdagi bo‘ldi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev birgalikda “AlmatyFair.ai” raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt ko‘rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Davlat rahbarlariga mazkur sohalardagi ilg‘or yechimlar va innovatsion ishlanmalar haqida axborot berildi.

Qozog‘iston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Alem.ai sun‘iy intellekt markazining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Alem.ai — sun‘iy intellekt sohasida mutaxassislarni o‘qitish, startaplarni ishga

tushirish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun platforma.

Yetakchilar Markaziy Osiyodagi eng yirik texnoparklar birlashmasi — “Central Asian Innovation Hubs” (“Astana Hub” va “IT Park Uzbekistan”) faoliyati bilan ham tanishdilar.

Prezidentlar raqamlashtirish sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma IT mahsulotlarini yaratish, sun‘iy intellekt va ilg‘or axborot texnologiyalari sohasidagi milliy strategiyalarni o‘zaro bog‘lash muhimligini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Olmaota shahriga tashrifning madaniy dasturi doirasida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan birgalikda Abilxon Kasteyev nomidagi Milliy san‘at muzeyiga tashrif buyurdi.

Xalq rassomlari — qozog‘ tasviriy san‘ati asoschisi Abilxon Kasteyev va o‘zbek rangtasvir ustasi O‘rol Tansiqboev asarlari tomosha qilindi.

Ko‘rgazma O‘zbekiston va Qozog‘iston boy badiiy merosining yorqin ifodasi, ikki qardosh xalq o‘rtasidagi mustahkam madaniy aloqalarning ramzi bo‘ldi.

Davlat rahbarlari san‘at sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, shu jumladan, qo‘shma tadbirlar o‘tkazish, madaniy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidladilar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog‘iston Respublikasiga amaliy tashrif yakunlandi.

Olmaota xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kuzatib qo‘ydi.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

Qadri yurtdoshlar!

Avvalo, siz azizlarni, butun xalqimizni ulug‘ ayyom — muborak Ramazon hayiti bilan chin yurakdan samimiy tabriklab, barchangizga o‘zimizning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu saodatli damlarda bu yilgi Ramazon oyini har tomonlama munosib o‘tkazib, Iyd al-Fitri el-yurtimiz bilan birga mana shunday shod-u xurramlikda kutib olayotganimiz uchun Yaratganga behisob shukronalar aytamiz.

Albatta, tub mohiyatida insonparvarlik g‘oyasi mujassam bo‘lgan muqaddas islom dinining ezgu qadriyatlarini bugungi kunda

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga naqadar uyg‘un va hamohang ekanini Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bu haqda so‘z yuritganda, avvalo, ma‘naviy poklanish, sabr-qanoat, shukronalik, xayr-u saxovat fazilatlarini ulug‘lanadigan ushbu o‘yin milliy an‘ana va qadriyatlarimizga mos tarzda, yuksak saviyada o‘tkazish, yurtimiz musulmonlari ibodat amallarini emin-erkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta’kidlash lozim.

Ayniqsa, bu muborak o‘yning “Ramazon — saxovat, birdamlik va bag‘rikenglik oyi” degan g‘oya asosida o‘tkazilgani jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik, mehr-oqibat va saxovat muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Shu maqsadda kam ta‘minlangan, yordamga muhtoj oilalar, keksa, nog‘iron va yolg‘iz insonlar holidan xabar olish, kambag‘al kishilarning og‘irini yengil qilish, uylar va mahallalarni obod etish, uch avlod vakillari ishtirokida ommaviy daraxt ekish, yangi bog‘-u rog‘lar barpo etish bo‘yicha ko‘plab xayriya tadbirlari o‘tkazilganini qayd etish zarur. Jumladan, respublikamiz bo‘ylab ko‘p millatli, ko‘p konfessiyali mamlakatimiz jamoatchiligini vakillarini birlashtirgan iftorki marosimlari bizning kuchimiz birlikda va hamjihatlikda ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

O‘ylaymanki, keyingi yillarda yaxshi an‘ana aylangan bunday marosimlar inson qadrini ulug‘lash, mehnatkash va olijanon xalqimizni yagona, ahil oila sifatida birlashtirish borasida

beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, biz bu ishlarni bundan buyon ham albatta davom ettiramiz.

Hurmatli do‘stlar!

Barchangizga ma‘lumki, islom — bu avvalo, odamiylik, ilm-fan, bilim va ma‘rifat, ezgu fazilatlarini ulug‘lash ta‘limotidir.

Shu borada mamlakatimizda islom sivilizatsiyasi va madaniyati asosida yaratilgan boy ilmiy-ma‘naviy merosni to‘plash, o‘rganish va keng targ‘ib etishga so‘nggi yillarda ulkan e‘tibor berilmoqda. Ayni shu maqsadda yurtimizda yangi-yangi ilmiy-ma‘rifiy markazlar, diniy yo‘nalishdagi ta‘lim maskanlari, qutlug‘ ziyoratgohlar barpo etilib, samarali faoliyat olib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi go‘zal diyorimizda barcha soha va tarmoqlar qatori diniy-ma‘rifiy hayot ham ulzüksiz rivojlanishda ekanidan dalolatdir. Bu ishlarda yurtimiz mo‘min-musulmonlari, butun xalqimizning munosib hissasi borligini ta’kidlab, buning uchun barchangizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Mana shu shukuhli ayyomda chet ellarda ona yurtga sadoqat tuyg‘usi bilan yashayotgan vatandoshlarimizni ham Ramazon hayiti bilan chin dildan qutlab, ularga ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Ushbu sharofatli kunda dunyoning uzoq-yaqin o‘lkalaridagi musulmon ummatini ham qizg‘in tabriklab, ularning xalqlari va mamlakatlariga do‘stlik salomimizni yo‘llaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni Ramazon hayiti bilan yana bir bor chin qalbidan muborakobod etib, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt-u saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Ramazon oyida qilgan barcha ezgu niyat va duolarimiz ijobat bo‘lsin!

Alloh taolo jonajon Vatanimiz va xalqimizni o‘z panohida asrasin!

Iyd al-Fitri ayyomi barchamizga muborak bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## SAMIMIY QUTLOVTLAR

Mo‘min-musulmonlar uchun muqaddas bo‘lgan, ruhiy poklanish, mehr-oqibatli bo‘lish, muhtojlarga ko‘mak va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga undovchi Ramazon oyi va muborak Ramazon hayiti munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, tanikli din va jamoat arboblardan qutlovlar kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar O‘zbekiston va uning ko‘p millatli xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilab, mamlakatimiz bilan do‘stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga intilishini tasdiqlamoqda.

Quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:

Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**

Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi

**Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz Ol Saud;**

Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog‘an;**

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev;**

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov;**

Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon;**

Turkmaniston Prezidenti **Berdimuhamedov;**

Turkman xalqining milliy yetakchisi,

Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi **Gurbanguli Berdimuhamedov;**

Ozərbayjan Respublikasi Prezidenti **Ilhom Aliyev;**

Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti

**Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;**

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi

**Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum;**

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti

**Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon;**

Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari

**Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon;**

Misir Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi;**

Eron Islom Respublikasi Prezidenti **Mas‘ud Pezeshkiyov;**

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri **Shahboz Sharif;**

Qatar Davlati Amiri **Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy;**

Qatar Davlati Amirining o‘rinbosari

**Shayx Abdulloh bin Hamad Ol Soniy;**

Kuveyt Davlati Amiri **Shayx Mish‘al al-Ahmad al-Jobir as-Saboh;**

Kuveyt Davlati Valiahdi **Shayx Saboh Xolid al-Ahmad as-Saboh;**

Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II;**

O‘mon Sultoni **Haysam bin Toriq Ol Said;**

Bahrayn Podshohi **Shayx Hamad bin Iso Al Xalifa;**

Marokash Qiroli **Muhammad VI;**

Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti **Abdulmajid Tabbun;**

Tunis Respublikasi Prezidenti **Qays Said;**

Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas;**

Liviya Davlati Prezident kengashi rahbari **Muhammad Yunus Al-Manfi;**

Somali Federativ Respublikasi Prezidenti **Hasan Shayx Muhammad;**

Isroil Davlati Prezidenti **Isxak Gersog;**

Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha;**

Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi

**Ja‘sin Muhammad Al-Budayyiy;**

Turkiya davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev;**

Turkiya davlatlar tashkiloti Qo‘shoqollar kengashi raisi

**Binali Yildirim;**

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bosh kotibi

**Faridun Sinirli o‘g‘li;**

Islom taraqqiyot banki raisi **Muhammad Sulaymon Al-Jasir;**

“Al-Azhar” majmuasi shayxi **Ahmad Tayyib;**

Kavkaz musulmonlari idorasi raisi

**Shayxulislom Ollohshukur Poshshozoda.**

Tabriklar kelishda davom etmoqda.



## MARKAZIY OSIYO — FAROVON, BARQAROR RIVOJLANAYOTGAN, ISHONCH VA DO‘STLIK MAKONI

Markaziy Osiyo tushunchasi geografik jihatdan yaxlit hududni anglatganda, yaqin-yaqin tom ma‘noda bir-birini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llovchi, to‘ldiruvchi, xalqaro maydonda yagona manfaatni ifodalovchi, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga asoslangan, bir-biriga ochiq mintaqaga emas edi. Tarixiy qavm-qarindoshlik rishtasi, an‘ana va qadriyatlar uyg‘unlashib, xalqlarimiz o‘zaro jipslashib ketgan bo‘lsa-da, chegaralarga, savdo-sotiq va boshqalarga qo‘yilgan sun‘iy to‘siqlar muayyan muddat mintaqa aholisini bir-biridan ayro qildi.

Davomi 3-beta



# YAXSHI AMALLARNI YIL BO'YI DAVOM ETTIRISHGA JIDDU JAHD QILAYLIK!

**Prezidentimiz O'zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigini yo'ladi. Unda ta'kidlanganidek, muborak o'ying "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" degan g'oya asosida o'tkazilgan jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va saxovat muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.**

**Shayx Nuriddin XOLIQAQZAR,  
O'zbekiston musulmonlari  
idorasi raisi, muftiy**

Davlatimiz rahbari o'z tabrigida "Kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalar, keksa, nogiron va yolg'iz insonlar holidan xabar olish, kambag'al kishilarning og'irini yengil qilish, uyalar va mahallalarni obod etish, uch avlod vakillari ishtirokida ommaviy daraxt ekish, yangi bog'lar barpo etish bo'yicha ko'plab xayriya tadbirlari o'tkazilganini qayd etish zarur. Jumladan, respublikamiz bo'ylab ko'pmillatli, ko'pkonfessiyali mamlakatimiz jamoatchiligi vakillarini birlashtirgan iftorlik marosimlari bizning kuchimiz birlikda va hamjihatlikda ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi", deya alohida ta'kidlagani barchamizni ezgu amallar, oliy maqsadlar sari chorlab turibdi.

Darhaqiqat, Alloh taolaga hamd-u sanolar bo'lsin, ruhiy poklanish, xayr-saxovat oyi bo'lgan muborak Ramazon yurtimizda ko'tarinki kayfiyatda hamda yuqori darajada o'tdi. Ushbu ulug' oyda xalqimiz toat-ibodatda ham, xayr-saxovatda ham g'ayrat ko'rsatib, bir-biriga quvonch ulashdi. Ehtiyojmandlarga yordam qo'lini cho'zishdek savobli ishlarda namuna bo'ldi. Bunday ezgu amallar jamiyatimizda do'stlik, birdamlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamladi.

Prezidentimizning shu yil 26-martdagi "Muborak Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida"gi qarorida ushbu ayyomni xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish ta'kidlangan edi. Qaror asosida tegishli chora-tadbirlar ko'ridi. Natijada xalqimiz ushbu bayramni juda katta quvonch bilan nishonlash baxtiga musharraf bo'lmoqda.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Har bir qavmning o'z bayrami bor, bu (iyd kuni) bizning bayramimizdir", deya biz, ummatlarini bu kunda xursandlik qilishga chorlaganlar.

Inom Termiziy bobomiz rivoyat qilgan hadisi sharifida iyd kunlari haqida payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Ushbu kunlar yeb-ichish va

xursandlik kunlaridir", deganlar. Shuning uchun bu kuni dunyo musulmonlari qatori yurtimiz ahli ham katta shodiyona va bayram sifatida nishonlaydi.

Yaratgan Robbimizga behisob hamdlar bo'lsin, bu yil diyorimizda Ramazon oyi avvalgi yillarga qaraganda ham fayz-u tarovatli o'tdi. Ayniqsa, yurtimizdagi 1700 dan ziyod masjidida Qur'on xatm qilingani, Qadr kechasida Qur'on karim xatmi yakunlanib, yurtdoshlarimiz barcha masjidida bir vaqtda duoga qo'l ochgani nur ustiga nur bo'ldi. Jamoat bo'lib qilingan bunday iltijolar ijobatidan mamlakatimiz yanada ravnaq topadi, hayotimiz tinch va farovon, ikki dunyomiz obod bo'ladi, inshaalloh.

Oylarning sultoni bo'lgan Ramazoni sharif yurtimiz ahlining o'zaro mehr-oqibati ortishi bilan birga, xayrli ishlariga boy bo'ldi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan "Ko'ksaroy" qarorgohida o'tkazilgan iftorlik marosimi butun yurtimiz bo'ylab keng quvonch yozdi. Ushbu tarixiy oqshomda mamlakatimizning barcha hududida, viloyat, shahar va tumanlardagi hamma mahallay uzarlarida iftorlik dasturxonini yoziydi. Ahil oila bo'lib yashayotgan turfa millatli xalqimiz go'yo bir dasturxon atrofiga jamuljam bo'ldi. Unda Qur'on karim oyatlarini tilovat qilindi, nuroniy otaxonlarning duosi olinib, ko'plab insonlarga quvonch ulashildi.

Davlatimiz rahbari Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida daryolarimiz suvga, omborlarimiz hosilga to'lishini so'rab tilak bildirgan edi. Buni qarangi, Allohning fazli-u marhamati ila yurtimiz bo'ylab ikki-uch kun baraka boyg'iri yog'ib, qalbimizni yanada yoritdi.

Ulug' kunlarning mana shunday shukuhli o'tishi, oilalardagi quvonch-u shodliklar, farzand-u nabiralari xursandligi Qodir Egamning diyorimizga ato etgan tinchlik-xotirjamlik ne'mati tufaylidir.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya asosida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, diniy sohadaqi islohotlar, yangi ochilayotgan masjid va madrasalar, qayta obod bo'layotgan qadamlar, ko'payib borayotgan Qur'on karim kurslari, haj-umra qiluvchilar soni yil sayin ortib borayotgani xalqimizni mamnun etmoqda. Xususan, bu yilgi Ramazon oyi xalqimiz uchun esda qolarli tarixiy voqealarga boy

bo'ldi. Ushbu kunlarda Prezidentimiz Samarqanddagi Imom Buxoriy hazratlarining maqbarasini ziyorat qilish asnosida majmuadagi bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi. Qur'on karim oyatlarini tilovat qilinib, buyuk ajdodimiz ruhiga baxshida etildi.

Yana bir quvonchli xabar bu yil yurtimizda Imom Moturiyid tavalludining 1155 yilligi nishonlanishi bo'ldi. Bu borada davlatimiz rahbarining alohida qarori chiqdi. Mazkur huquqiy hujjat xalqaro maydonda ham O'zbekistonning ilmu ma'rifatiga e'tiborini, bag'rikenglik va hamjihatlikni targ'ib etishga qaratilgan sa'y-harakatini namoyon etadi.

Qutlug' oydagi savobli amallar "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar bilan davom etib, poytaxtimizning Bektemir tumanida katta bir boqqa asos solindi. Hadisi sharifda "Qaysi bir musulmon daraxt yo'qin ekin esa-yu, undan qushmi, insonmi yoki hayvonmi yesa, albatta, shu sababli u uchun sadaqa bo'lur", deya xushxabar berilgan (Imom Buxoriy rivoyati).

Fazilatli oyda "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" g'oyasi asosida ehtiyojmand, ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga moddiy-ma'naviy yordam berish an'anasi yangicha mazmun kasb etdi. Ushbu ulug' oyda yurtimizdagi 9,5 mingga yaqin mahalladagi kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalar uchun iftorlik dasturxonini yoziyb, xayr-saxovat ko'rsatildi. Shuningdek, nogironligi bor oilalar, Mehribonlik, Saxovat va Muruvvat uylarida yashayotganlar holidan xabar olish kabi savobli ishlar dillami shod etdi. Zero, Imom Abu Dovud rivoyat qilgan hadisida "Zaiflarga (yaxshilik qilish bilan) Mening roziligimni izlanglar! Zero, sizlar zaiflaringiz tufayli rizqlanasiz", deyilgan.

Keyingi yillarda xorijda o'qiyotgan va ishlayotgan vatandoshlarimizni go'llab-quvvatlash bo'yicha ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Ramazon oyi davomida bir necha ulamomiz AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya davlatlariga safar qilib, hamyurtlarimiz bilan ma'rifiy suhbatlar uyushtirdi.

Ramazon oyida nafsimizni imkon qadar tarbiyalash, go'zal xulqli bo'lish, o'zgaralarga yordam berish kabi yaxshi xislatlarga odatlantirdik. Shuningdek, o'zimni yomon odat va ishlardan tiyishga harakat qildik. Endi mana shu yaxshi amallarni yil bo'yi davom ettirishga jiddu jahd qilaylik!

Duolar ijobat bo'ladigan mana shunday lahzalarda Alloh taoladan so'raylik: butun olamga tinchlik-xotirjamlik ne'matini bersin, taraqqiyot va to'kinligimizni ziyoda va doimiy qilsin!

## Munosabat

Muborak Ramazon hayiti yurtimizning har bir go'shasi, barcha mahalla va xonadonlarda o'zaro hamjihatlik bilan tinch-totuv, fayzli va shukuhli muhitda nishonlanmoqda. Insonparvarlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat, kam ta'minlangan va ehtiyojmand shaxslar, yordamga muhtoj oilalarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish kabi yuksak insoniy fazilatlar ayni kunlarda yanada keng namoyon bo'layotir.

## BAG'RIKENGLIK, KECHIRIMLILIK, AFV QADRIYATI

### TUFAYLI SO'NGAN UMIDLAR YANA SHU'LA SOCHMOQDA

Ushbu farahli damlarda Prezidentimizning "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilingani bayram shodiyonasiga yanada fayz qo'shdi. Zero, kechirimlilik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ezgu fazilatidir. Bu an'analarning barhayot yashashi jamiyatida, oilalarda mehr-oqibat, insoniylik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan va ijobiy tavsifga ega minglab odamlar bu imkoniyatdan foydalanib, sog'lom hayotga qaytayotgani jamiyatimizda adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilyapti.

Farmonga muvofiq, bu gal ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan, jazo muddatini o'tayotgan hamma qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 488 shaxs afv etildi. Ularning 100 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 268 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 86 shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddati qisqartirildi.

Afv etilganlarning 17 nafari chet el fuqarolari, 37 nafari ayollar, 37 nafari 60 yoshdan oshgan erkaklar, 167 nafari yoshlar (shulardan 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 5 nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslardir.

Inson uchun ozod va obod, tinch-xotirjam yurtda umrguzaronlik qilishdan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Taqdir bizga ana shunday porloq tole baxsh etgani ulkan saodattir. Buni har bir fuqaro teran anglamog'i, qadrlamog'i lozim. Ammo hayot bir tekis emas, oramizda bu ne'matning qadri o'z vaqtida anglab yetmaydigan, gohida bilib, gohida bilmay nomaqbul yo'llarga kiradigan, hayot so'qmoqlarida adashadiganlar ham uchrab turadi.

Tabiiyki, ularning qonun oldiga javob berishiga to'g'ri keladi. Jazoni ijro etishga kirishar ekan, ularning ko'pi xato qilganini, qayta imkon berilsa, aybini yuvish uchun halol yo'lga kirishini aytib afsus-nadomat qiladi. Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan afv instituti ana shunday insonlarga berilgan katta imkoniyatdir.

Qolaversa, jinoyat sodir etgan shaxs nafaqat o'zi, balki farzandlari, ota-onasi, qavm-qarindoshlarining ham kelajagi va taqdiriga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Ozodlikdan mahrum bo'lgan kishi ortidan farzandlari, ota-onasi va boshqa yaqinlari ham iztirob chekadi. Shu sababli xato qilgan va bugun qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslarni kechirish — yuksak insonparvarlik namunasidir. U yaqin insonni iztirob va intizorlik bilan kutayotgan butun bir oilani yangidan hayotga qaytarish bilan barobardir.

Mazkur farmoning ayni Ramazon oyida chiqarilishida ham o'ziga xos ma'no bor. Bu oyda yaxshilik, kechirimlilik, o'zgaralarga mehr-oqibat ko'rsatish, adovetni unutish kabi insoniy fazilatlar yanada ko'p namoyon bo'ladi. Biz bu galgi afvda ham xalqimizning ana shu ming yillik qadriyatini ro'yobga chiqqaniga guvoh bo'lmoqdamiz. Afv etilgan har bir shaxs o'ziga bildirilgan yuksak ishonchni oqlab, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosib hissa qo'shadi, jamiyatda o'z o'rini topadi deb umid qilamiz.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi. Ularning so'z-siz bildirilishi jamiyatimizda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash, inson huquqi va manfaatlarini muhofaza qilish, aholi turmush darajasini oshirish va xalqimizni rozi qilishda o'z samarasini beradi.

**Bahor XIDIROVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

## Xalqaro anjuman



**Malika QODIRXONOVA,  
senator**



**Bugungi kunda Parlamentlararo Ittifoq eng yirik global parlamentlararo tashkilot hisoblanadi. Zero, ushbu tuzilma parlamentlarning 46 mingdan ortiq a'zosi manfaatlarini ifodalaydi. Bu esa uni muloqot, parlament diplomatiyasi va xalqaro hamkorlik uchun eng muhim platformaga aylantirmoqda. Tashkilot milliy qonun chiqaruvchi organlar tajribasi va amaliyotini uyg'unlashtirib, global muammolarni bartaraf etish bo'yicha umumiy strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashmoqda.**

# PARLAMENTLARARO ITTIFOQ VA YOSHLAR

Parlamentlararo Ittifoq xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va demokratik tamoyillarni ilgari surishda ham muhim rol o'ynamoqda. Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida qisqacha gapiradigan bo'lsak, birinchi navbatda, parlament diplomatiyasi haqida to'xtalish joiz. Zero, ushbu nufuzli tashkilot turli mamlakatlar parlamentlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish, shu asosda global muammolarni muhokama qilish va yechimlar topishda muhim muloqot maydoniga aylandi. Tashkilot parlamentlarga demokratik tamoyillar, hokimiyatning shaffofligi va hisobdorligini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashib kelmoqda.

Ikkinchidan, tobora kuchayib borayotgan geosiyosiy tahdidlar sharoitida mazkur tashkilot mojarolarni hal qilish, xalqaro huquqni rivojlantirish va tinchlikparvarlik faoliyatiga ko'maklashish borasidagi rolini kuchaytirmoqda. Tashkilot inqirozning oldini olish va mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida parlamentlararo hamkorlikni go'llab-quvvatlamog'ida. Ziddiyatli hududlarda inson huquqlarini himoya qilish, zo'rvonlikning oldini olish va insonparvarlik yordami ko'rsatishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Uchinchidan, mazkur tuzilma erkin va adolatli saylovlarni faol go'llab-quvvatlab, saylov jarayonlari shaffofligini ta'minlash va davlat institutlariga ishonchni oshirish bo'yicha zarur tavsiyalarni hayotga tatbiq etib kelmoqda. To'rtinchidan, tashkilot faoliyatida yoshlar ishtirokini kuchaytirish masalasi ustuvor vazifalardan biridir. Toshkentda bo'lib o'tishi kutilayotgan yubiley assambleya kun tartibida ham bu masala doirasida keng miqyosda muzokaralar o'tkazish belgilangan. Binobarin, yoshlarning parlamentga jalb qilinishi ularga siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkonini yaratadi. Qolaversa, kelajakda demokratik boshqaruv rivojiga katta hissa qo'shadi. Global siyosiy qarorlar qabul qilishda ularning nuqtayi nazarini

hisobga olish, barqaror va adolatli jamiyat barpo qilishga yordam beradi.

O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu demografik ko'rsatkich mamlakatni tez sur'atlarda rivojlantirishda kuchli manba hisoblanadi, desak to'g'ri bo'ladi. Mamlakatimizda yoshlarga doir ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Keyingi 8 yil ichida yoshlar masalalarini tartibga soluvchi 100 dan ortiq qonun va qonunositi hujjat qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

2020-yilda Oliy Majlisning ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlament tashkil etilgandi. Bu tuzilma yoshlar manfaatlarini himoya qilish, ularni qonunchilik jarayonlariga jalb etish va yoshlar bilan davlat o'rtasida ko'priq vazifasini bajarib kelmoqda. Yoshlar parlament tashkil etilganidan buyon navqiron avlod vakillari 100 dan ortiq qonun loyihasi muhokamalarida qatnashdi. Parlament qo'mitalari bilan birgalikda 80 dan ortiq nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirdi.

Ayni paytda Yoshlar parlament yoshlar va parlament o'rtasidagi chinakam ko'prikkay aylangan. Yoshlar o'z takliflarini ochiq aytish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, yosh avlodni qonunchilik jarayonlariga jalb qilish mamlakat siyosiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Yoshlar parlament mamlakatning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ovozi baland eshitilishiga xizmat qilmoqda. Yoshlar huquqlarini himoya qilish va muammolarni hal etishda qonunchilikning roli tobora ortib boryapti. Bu nafaqat davlat siyosatining muvaffaqiyati, balki yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlovchi amaliy qadamlardir.

Ammo hozirgi tezkor zamonda shu yutuq va natijalarning o'zi bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi bu borada o'zaro tajriba almashish uchun yaxshi imkoniyatdir.

## 2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili

# ENERGIYA SAMARADORLIGI MUAMMO QAYERDA, YECHIM NIMADA?

**Xayrullo G'AFFOROV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza  
qilish masalalari qo'mitasi raisi**



**Energiya samaradorligini oshirish nafaqat energiya resurslarini tejash, balki iqtisodiy xarajatlarni, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va energiya ta'minotini barqarorlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir davlatning energetika siyosatida asosiy o'rin egallaydi.**

Mamlakatimizda energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish borasidagi izchil islohotlar sababi ham shunda. 2024-yil 7-avgustdagi "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qonun yurtimizda energiya barqarorligini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'ldi. Binobarin, unda energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, energetika menejmenti, energiya auditi, energetika ekspertizasi, energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari hamda iqtisodiy mexanizmlar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 28-yanvar kuni elektr energetikasini 2025-2035-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, sanoatda energiya samaradorligi orqali ko'pinch 27 foiz yalpi ichki mahsulot yaratish imkoniyati borligi qayd etildi.

Xususan, hozir kimyo va metallurgiya bo'yicha ayrim mahalliy korxonalarda energiya sarfi dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 2 karra, sement ishlab chiqarishda esa 1,2 barobar yuqoriligiga urg'u berildi. Har bir tarmoqda energiyani 10-15 foiz iqtisod qilish, 2030-yilda elektr energiyasi yo'qotishlarini hozirgi 14 foizdan 8-9 foizgacha tushirish vazifasi qo'yildi.

Bugun ushbu masala juda dolzarb. Sohadagi ishlar ko'laminani yanada kengaytirishni talab etadi. Shu bois, joriy yil 27-martda Prezidentimiz energiya resurslarini iqtisod qilish, iste'mol samaradorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bo'yicha yana bir muhim yig'ilish o'tkazdi.

Albatta, so'nggi yillarda iqtisodiyot sohalari energiya samaradorligi jihatidan yangilanib, yirik korxonalar va energetika tarmoqlari kesimida alohida dastur amalga oshirilmoqda. 2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 millionga yetishi, iqtisodiyot 2 karra o'sishi kutilayapti. Bu esa energiya resurslariga talabni hozirgidan 1,5 karra oshiradi.

Shuning uchun yangi loyihalarni ishga tushirib, quvvatni ko'paytirish bilan birga energiyani tejash choralarni ko'rish g'oyat muhim. Yig'ilishda, birinchi navbatda, yirik sanoat korxonalarida zamonaviy tejamlar uskunalar o'rnatish, energiya isrofini kamaytirish zarurligiga urg'u berildi.

Mamlakatimizda aholini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash barobarida ushbu manbadan samarali va tejamlorlik bilan foydalanish masalasiga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki yildan yilga tabiiy resurslar kamayib borishi va elektr energiyasiga talab ortishi kuzatilayotganda energetika samaradorligi hamda tejamlorligi o'ta muhim vazifa.

Shu yil 19-fevral kuni davlatimiz rahbari energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish davomida ham mas'ulardir oldingi aniq vazifalar qo'ydi. Bu bejiz emas, albatta. Boisi, O'zbekistonda 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,5 barobar ko'p energiya sarflanayapti. Elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar 14 foiz, tabiiy gazda esa 7 foizdan yuqori. Joylarda energiyani tejash imkoniyati ilmiy asosda o'rganilganda 7 ta viloyatda 4,6 milliard kilovatt-soat elektr va 1 milliard kub metr gazni iqtisod qilish mumkinligi aniqlangan.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: xo'sh, bugun energiya samaradorligini oshirish bo'yicha qanday muammolar mavjud?

Birinchidan, ayrim ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida ma'nan eskirgan, ko'p energiya talab etadigan texnologiyalar hamda samarasiz infratuzilmadan foydalanilayotir.

Eski qurilmalar va ishlab chiqarish liniyalari ko'p energiya sarflaydi. Shuningdek, eskirgan elektr tarmoqlaridan foydalanish ham energiya yo'qotishlariga olib keladi. Bu, o'z navbatida, samaradorlikni pasaytiradi.

Ikkinchidan, energiya tejovchi yangi texnologiyalarni joriy etish uchun katta moliyaviy mablag' talab etiladi. Bu esa ko'pchilik davlatlar va korxonalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Uchinchidan, energiyani tejash bo'yicha bilim va tajriba yetarli emasligi yoki energiya samaradorligi ahamiyati to'liq anglab yetilmayapti. Foydalanilmayotgan vaqtda elektr jihozlari o'chirilmalik, isitish va sovitish tizimlaridan noto'g'ri foydalanish kabilar shular jumlasidan.


Mazkur masalalarni hal etish, energiya samaradorligini oshirishning qanday yechimlari bor? Eng avvalo, korxonalarda energiya va resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish energiya iste'molini kamaytirish imkonini beradi. Elektr uzatish liniyalaridagi yo'qotishlarni kamaytirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish ham samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar hamda "aqlli" energiya tarmoqlarini joriy etish natijasida energiya behuda sarflanishi va yo'qotilishi kamayadi. Quyosh, shamol, suv va biomassa kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanish energiya samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Yangi binolarni energiya saqlashni hisobga olgan holda loyihalashtirish, ular uchun minimal energiya samaradorligi talablarini belgilash, issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash orqali energiya sarfini kamaytirishga erishiladi. Bundan tashqari, energiya samaradorligiga erishish borasida investitsiyalarni jalb qilish, buning imtiyoz va subsidiyalari joriy etish ham natija beradi.

Biz parlament vakillari sifatida sohaga oid qonun hujjatlarini islohotlarga mos ravishda takomillashtirish, energiya tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha aholi orasida tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishimiz zarur.

Umuman olganda, energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilishda ham katta yordam beradi. Energiya resurslaridan oqilona foydalanmay, tarmoq va hududlarda, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy sohalarida energiya samaradorligini ta'minlamay, tizimda yuqori natijalarga erishish qiyin.





Tahlil

**Yurtimiz jamoat transporti keyingi yillarda eng ko'p tanqid qilinadigan sohadan katta islohotlarga yuz burib, sezilarli yangilanishlar olib kirilgan tizimga aylandi. Hozir odamlar doimiy qatnov uchun avtobus yoki metroda harakatlanish ancha qulayligi haqida gapiryapti. Amaliyotda ham yo'lovchilar oqimi oshib borayotganini ko'rish mumkin, raqamlar tez-tez yangilanyapti.**



Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Jumladan, shu yilning 5-fevral kuni yana bir rekord raqam qayd etilib, poytaxtimiz avtobuslarida bir kunda tashilgan yo'lovchilar soni salkam 1,5 million nafarga yetdi. Toshkent metropolitenida esa o'tgan yili rekord darajada — 270,3 million yo'lovchi tashilib, 2023-yildagiga nisbatan 57,2 foiz o'sish kuzatildi.

Umuman, shahar jamoat transport tizimi har jihatdan rivojlanayotgani poytaxt aholisi hamda mehmonlari orasida ommalashishga xizmat qilyapti. Foydalanish ko'rsatkichlariga xizmat xizmat ko'rsatish sifati va turli ham kengayib bormoqda. Boisi, yurtimizda aholi uchun qulay, xavfsiz jamoat transportini yaratish maqsad qilingan. Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham aniq vazifalar belgilangan. Asosiy, bu o'zgarishlar tushumidagi aks etib, odamlar jamoat transporti qulayliklaridan kundalik hayotda foydalanayapti.

Jamoat transporti tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishni davrning o'zi talab qilmoqda, — deydi Transport vazirligi Avtomobil va jamoat transporti departamenti boshlig'i Vohid Ismoilov. — Shu bois, bugungi kunda aholining jamoat transportiga ehtiyojini to'liq ta'minlash, uning qamrovini kengaytirish bo'yicha jadal ishlar amalga oshirilayapti. Ochiq'i, yillar davomida bu yo'nalishga yetarli e'tibor qaratilmagan boisi, aholining jamoat transportiga ishonchi bilan birga foydalanish ko'rsatkichlari keskin tushib ketgandi. Buni o'zgartirish Toshkent shahrida aniq ketma-ketlikda kechdi. Natijada 2022-yilda poytaxtda avtobuslar harakat tarkiblarini soni

1400 tadan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 1900 dan oshdi. Shahar jamoat transporti harakat tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq eng katta o'zgarishlar 2023-yilda sodir bo'ldi. Toshkent shahri uchun katta va o'ta katta hajmli 1000 dona avtobus olib kelindi. Shundan so'ng mahalliy va xorijlik mutaxassislar ishtirokida shahar transporti bosh rejasini ishlab chiqildi. Mana shu reja asosida shahar avtobus yo'nalishlar tarmog'i butunlay qaytadan tuzildi. Bir-birini takrorlovchi, metropoliten liniyalari bilan ustma-ust tushib qolgan yo'nalishlar olib tashlandi va yo'nalishlar tarmog'i optimallashtirildi.

Avtobuslar intervallari oraliq'i 20-30 daqiqagacha cho'zilgani hali uzoq o'tmishga aylangan. Transportlarning aksariyati kichik hajmga o'tkazilgandi, ularning saloni katta sig'imga ega bo'lmagan. Bundan odamlar norozi bo'laverib, oxiri jamoat transportidan hafsalasi pir bo'lgani, foydalanmay qo'yayotgan ham si' emas. Mana shu jarayonlar bosqichma-bosqich hal etilib, tizimni muammolar yechildi. Hozir Toshkent shahrida harakatlanayotgan avtobuslar oraliq intervalli 10 daqiqagacha tushgan, ba'zi yo'nalishlarda 12 daqiqani tashkil etyapti. Avvallari avtobusning o'zida kuniga 400-500 ming atrofida yo'lovchi tashilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu raqam 1 million 200 mingga yetdi.

Boshqa raqamlarga ham to'xtalsak, o'zgarishlar yaqqolroq ko'rinadi. Xususan, so'nggi ikki yilda Toshkent shahrida avtobuslar soni ikki barobar, ularning o'rtacha sig'imi esa 74 foiz o'sdi. 164 ta yo'nalishdan iborat yangi yo'nalishlar tarmog'i hamda avtobuslar uchun alohida 53,4 kilometr yo'laklar joriy etildi. Ayni paytda yurtimiz bo'ylab jami 3708 ta yo'nalish mavjud bo'lib, ularda jami 32 ming 267 ta avtotransport vositasi xizmat ko'rsatmoqda. Shundan 5370 tasi avtobus, 2807 tasi mikroavtobus hamda 24 ming

90 tasi yengil avtotransport vositasidir. 2030-yilga qadar harakat tarkibini 7 mingtaga yetkazish bo'yicha yillar kesimida reja ishlab chiqilgan.



# JAMOAT TRANSPORTIDA

# NAQD PULSIZ TO'LOV

## TEJALAYOTGAN VAQT, TUSHUMI ORTAYOTGAN MABLAG' VA 800 DAN ORTIQ CHIPTACHI TAQDIRI

Jamoat transportidan foydalanuvchilar soni ham ikki barobar oshgan. Birgina Toshkent shahrida ayni paytda 5 million aholi mavjud bo'lib, shundan mobil (harakatdagi) odamlar soni o'rta 3,5 million kishini tashkil qiladi. Tahlillarga ko'ra, shahar aholining kunlik harakatlanishi (qatnovi) soni o'rta 9 millionni tashkil etib, shundan 33 foizi jamoat transporti hissasiga to'g'ri kelyapti. Ko'rilayotgan barcha chora-tadbirlar, yangilanishlar bu ko'rsatkichni yanada oshirishga qaratilgan.

### Zamonaviy avtobuslar ancha qulay

Jamoat transporti odamlar uchun arzon, xavfsiz yo'lovchi vositasi ekanini jehon tajribasidan ma'lum. Ayniqsa, yo'larda tirbandliklar oshib borayotgan hozirgi davrda jamoat transportidan foydalanish ancha samarali. Ya'ni bunday turdagi transport vositalari sonini nafaqat Toshkent shahri, balki yurtimizning barcha hududlarida ko'paytirish, ushbu xizmat turini rivojlantirishga zarurat bor.

Toshkent shahrida yo'lovchi tashish bilan asosan, "Toshshahartransxizmat" AJ shug'ullansa, viloyatlarda to'liq xususiy sektorga berilgan. Avvallari yo'nalishda ko'rsatgan xizmatiga yanada kafolatlangan mablag'ni to'lash mexanizmi bo'lmagan sababli bu faoliyat tadbirkorlarni qiziqitirmay qo'ygan. Buning ortidan hududlarda jamoat transportining asosiy vositasi bo'lgan avtobuslarni sotib olish ko'rsatkichi pasayib ketgandi. Ammo transport xizmatlari ko'rsatishda moliyalashtirishning yangi brutto-shartnoma tizimiga o'tilgach, tadbirkorlarda

kompaniyalari bilan zamonaviy avtobuslarni xarid qilish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Kelishuvlarga ko'ra, Olmaliq, Termiz hamda Toshkent shahrida zamonaviy avtobuslar olib kelindi. Jumladan, tadbirkorlar tomonidan Olmaliq shahriga

83 ta, Termiz shahri uchun 100 ta avtobus xarid qilish ko'zda tutilgan. Bu orqali aholiga ko'rsatilayotgan jamoat transporti xizmatlari sifati oshib boradi.

— Yangi avtobuslar har tomonlama qulay. Ichi keng, sharoitlarga ega, — deydi yo'lovchilardan biri Ospan Jugunisov. — Avval manzilga, asosan, yo'nalishni taktilarda qatnaganmiz. Avtobus undan ancha arzon. Qolaversa, qariyalarga avtobusning keng salonida o'tirish ancha qulay. Yo'l haqining elektron tizimga o'tkazilgani ham odamlarga yengillik yaratgan.

Hozir jamoat transporti tizimi ham, odamlar ham elektrobuslarga ustunlik beryapti. Ekologik toza, atmosferaga zararli gazlar chiqarmaydigan

banki bilan hamkorlikda "Yashil shaharlar" dasturi doirasida o'tgan yili Samarqand shahri uchun 100 ta "YUTONG" elektrobusi xarid qilindi. Shuningdek, joriy yilda Namangan hamda Nukus shaharlariga ham zamonaviy elektrobuslar xarid qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Andijon viloyatiga 100 ta elektrobus olib kelish ishlari boshlangan. Bu borada Xitoy kompaniyalari bilan muzokaralar o'tkazilmoqda.

### Qay biri afzal: naqd pulmi yoki elektron to'lov?

Yurtimiz jamoat transporti haqida gap ketganida, keyingi yillarda to'lov tizimining elektron shakliga o'tib, qulaylikni yanada oshirgani ko'zga tashlanadi. Dastavval, maxsus transport kartalaridan foydalanish — ATTO tizimi joriy etildi. Bunda naqd pulda to'lovni amalga oshirgandan ko'ra, maxsus kartadan foydalanishga o'tish tarif rejalarini tarzdagi arzonlashtirilgan chegimlar taqdim etildi. Muayyan vaqt davomida aholi ixtiyoriy tarzda transport kartalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ldi.

2024-yilda ATTO tizimidan foydalanish poytaxt va viloyatlarda kundalik qatnovlarning muhim qismiga aylanib, ma'lumotlarga ko'ra, 256 ming 175 ta transport kartasi sotilgan, ATTO mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni esa 740 mingdan oshgan. Jamoat transportida

elektron kartasi bo'lmagan odamlar to'lovni amalga oshirmasdan avtobusdan tushishga majbur bo'layotganidan norozi. "Avtobuschi naqd pul olmasdi, shunday tushib ketavering, deb aytdi", deydi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridan biri. Boshqa biron esa "Bir martalik chipta olish uchun infokiosk qidirib yurishga to'g'ri kelyapti, bu ancha noqulay" desa, yana boshqasi "Jamoat transportidan doimiy foydalanmaydigan biz kabi odamlarga naqd pulda to'lash ancha qulay edi", degan izohlarni qoldirgan.

Transport vazirligining dastlabki xabarlarida yangi tizimga o'tishda barcha qulayliklar yaratilgani aytiladi. Yo'lovchilar to'lov qilishda transport kartasi yoki istalgan turdagi bank kartasidan foydalanishi, shuningdek, Toshkent shahri bo'ylab o'rnatilgan 5 mingdan ortiq "Paynet", "MultiPay" va "Oson" infokioskidan bir martalik

QR-chipta xarid qilishi mumkinligi keltirildi. Ushbu tartib amaliyotga joriy etilgach esa odamlarda muammolar, noqulayliklar yuzaga kela boshladi. Ko'pchilik bank kartalariga ega emasligi, borlari ham qabul qilinmayotgani, infokiosklar soni esa kamligi, chipta olish uchun ularni qidirish kerakligi kabi vajlarni keltirgan. Yangi tartib noqulaylik tug'irayotgani sababli naqd pul qabul qilish amaliyotini qaytarishni so'rganlar ham bo'ldi.

Mirakbar IKROMOV, Toshkent shahri transport va yo'l transporti infratuzilmasini rivojlantirish bosh boshqarmasi boshlig'i:

— Yanvar oyi davomida yangi tizim ayrim yo'lovchilarda tushumovchilik va turli savollarni keltirib chiqardi. Bu hali ko'pchilikka elektron to'lov borasida yetarlicha ko'nikma mavjud emasligi bilan bog'liq edi. Asosiy masala QR-chiptani sotib olish, elektron to'lov usullarining qaysi birlidan foydalanish bilan bog'liq. Vaholanki, istalgan turdagi to'lov kartalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Avtobuslarda to'lovlarni transport kartasi (ATTO), bank plastik kartalari, mobil ilovalar orqali ham amalga oshirish mumkin. Aslida, to'lov kartalaridan foydalanish odamlarning o'zlari uchun qulay, chunki kartalarning har biri uchun tariflar bo'yicha chegimlar mavjud. Elektron to'lov tizimlarida to'lov qiladigan yo'lovchilar uchun yo'l haqi ayvalidek 1700 so'm holida saqlangan, almashiladigan tariflardagi chegimlar ham o'zgarishsiz qoldi. Faqat QR-chipta narxi 3000 so'm etib belgilandi. Karta sotib olish imkoniyati bo'lmaganlar uchun to'lov turining virtual shakllari ham bor.

Bir martalik QR-chiptalarni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan infokiosklardan orqali xarid qilish mumkin. Bugungi kunda Toshkent shahrida 2600 dan ortiq avtobus bekatlari bo'lsa, o'rnatilgan infokiosklar soni

5100 tani tashkil etyapti. Ularning aksariyati to'g'ridan to'g'ri bekatda joylashgan, qolgan bekat atrofida 300 metr davriyda manzillarga o'rnatilgan. Shuningdek, yo'lovchilar talab va takliflaridan kelib chiqib, qo'shimcha ravishda yana 600 dona infokiosk o'rnatildi. Bu infokiosklarni o'rnatish uchun davlat byudjetidan hech qanday mablag' sarflanmadi, barchasi tadbirkorlik subyektlarini. Mazkur infokiosklar bir martalik QR-chiptani sotishdan tashqari, yana 10 dan ortiq xizmat ko'rsatadi. Aholi tomonidan to'lov qilgach, infokioskning chipta qog'oz tugab qolgan bilan bog'liq e'tirozlar ham bo'ldi. Bunday vaqtda chiptani yo'lovchi o'z smartfoni yordamida rasimga olib, o'sha orqali to'lovni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, zamonaviy gadgetlardan hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kiosklaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmagan yo'lovchilarga qulaylik yaratish, qolaversa, infokiosklarning qaytim qaytarmaslik bilan bog'liq jihatlariga yechim sifatida QR-chiptalarni PAYNET xizmatlari orqali ham sotib olish imkoniyati yaratildi. Bu kabi shoxobchalar soni shahar bo'ylab 2700 tani tashkil etmoqda. Natijada QR-chiptalarni shahar

bo'ylab joylashgan 8 mingga yaqin nuqtadan sotib olish mumkin. Shu o'rinda bir jihatda alohida e'tibor qaratish lozim. Aksariyat xorijiy davlatlarda elektron to'lov tizimida faqatgina bitta transport kartasiga bog'lab qo'yiladi. Bizda esa cheklov yo'q, istalgan bank kartasi o'tadi. Xorijdan keladigan mehmonlarning aksarida Visa yoki Mastercard bor. Ana shular yordamida ham to'lovlarni bemalol amalga oshirish mumkin.

Umuman, jamoat transportida to'liq elektron to'lov tizimiga o'tish amaliyotini bekor qilish nazarda tutilgan. Aksincha, tizim doimiy takomillashtirib boriladi. Chunki uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad, avvalo, qulaylik va xavfsizlik. Avval naqd pulda to'lovlar mavjud bo'lganda, avtobuslar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini, bekatlarda ortiqcha turib qolish, qaytim bilan bog'liq muammolar kuzatilardi. Hozir shularga chek qo'yildi.

Mazkur tizimni amaliyotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham jamoat transportida tashuvlar xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq. Zero, avvalgi tizimda "kunlik plan" degan tushuncha mavjudligi bois, haydovchi bor e'tiborini to'liq harakat xavfsizligiga qaratish imkoniyatiga ega emas edi. Yangi tizim joriy etilishi natijasida 2025-yilning yanvar oyi davomida jamoat transportida sodir etilgan qoidabuzarliklar ikki barobar, avtobus ishtirokida YTH soni 28 foiz kamaydi. Shuningdek, haydovchilar tomonidan ko'proq yo'lovchi yig'ish maqsadida bekatlarda uzoq muddat to'xtab qolish (oraliq intervalni buzish), yo'lovchi talashib poyga o'ynash holatlarining oldi olindi.

### Yo'lovchilar 3,2 milliard so'm tejagan

"Elektron tizimga to'liq o'tilgach, yo'lovchi bilan haydovchi o'rtasidagi bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatga kirishish imkoniyati to'liq cheklandi. Asosiy e'tiborni harakat xavfsizligiga qarataymiz", deydi haydovchilardan biri. Hisob-kitoblarga ko'ra, naqd pulda to'lov qilishga chek qo'yilganidan keyin avtobuslar qatnovi munozamligi ham 28 foiz oshgan.

Yangi to'lov tizimi joriy etilganidan bir muddat o'tib, avtobusga chiqishimga to'g'ri keldi. Istalgan bank kartasi o'tadi, degan xabarni o'qiganim uchun o'zimga bank plastik kartasi orqali to'lov qilishga urindim. Ammo pul yechib olinmadi. Xijolat bo'lib, avtobus haydovchisiga naqd pul uzatgandim, oldim, tushib ketaverishimni aytdi. O'zimga juda noqulay bo'ldi. Ishxonaga kelib, hamkasblarimdan so'raganimda, eski turdagi bank kartasi o'rnatilgani aytdi. Yana bir kun avtobusga chiqishimga to'g'ri kelganda, ATTO mobil ilovasini o'rnatib olib, u orqali to'lashga harakat qildim. Ammo o'rnatishda xatolikka yo'l qo'yganim uchun uzatilmadi. E'tibor bersam, Chipta mobil ilovasi orqali ham to'lov qilish mumkin ekan. Maxsus QR-kodni skaner qilganimni bilaman, darrov to'lov qabul qilindi.

Aytmoqchi bo'lganim, chindan ham, avtobuslarda elektron to'lov qilishning bir qancha imkoniyatlari yaratilgan. Biri bo'lmasa, biridan foydalanish mumkin, bir oz qunt qilgan bo'lgani. Axir hozir zamonaviy texnologiyalar davrida yashayapmiz, har birimizning qo'limga yangi ruzumdagi telefon qurilmalari, ularga kerakli ilovalarni yuklab olish esa hech qanday vaqt olmaydi.

Buni tushungan yurtdoshlarimiz elektron to'lov tizimi ancha tejatkor va afzallikka ega ekanini aytaypti. Shu borada kichik ma'lumot: joriy yil yanvar oyida jamoat transportida ATTO transport va virtual kartalari orqali 15,2 million to'lov amalga oshirilgan bo'lib, yo'lovchilar tariflar orqali 3,2 milliard so'm tejagan.

— Oldindan transport kartasidan foydalanaman, shuning uchun yangisiga almashirib o'tirmadim, — deydi yo'lovchilardan biri. — Kartadan foydalanish ancha qulay, ayvalidek naqd pulda to'lov uchun avtobus ichida tiqilinchalar bo'lmayapti, qaytim kutishga ham hojat yo'q. To'lov narxlarida imtiyozlar bor. Ikkinchi avtobusga chiqqanda narx tushadi, uchinchisida esa bepul.

Jamoat transportida to'lov to'liq elektron tizimga o'tgach, "yashirin iqtisodiyot"ning ham oldi olinmoqda, — deydi "Toshshahartransxizmat" AJ boshqaruvchi raisi vazifasini bajaruvchi Sanjar Sattorov. — Ya'ni tushumlar faqat elektron shaklda qabul qilinishi hisobiga barcha pul mablag'lari to'liq mahalliy byudjetga tushishi ta'minlanmoqda. Tahlillarga e'tibor beradigan bo'lsa, 2025-yil yanvar-fevral oylarida jami 67,6 million yo'lovchi tashildi va bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 32,3 foiz oshgan. Mazkur avtobus tashuvlaridan olingan tushum 105,6 milliard so'm bo'lib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 21,3 foiz ko'p. Bundan tashqari, elektron to'lovlar ulushi keskin oshib, 98 foizga yetdi.

To'lov to'liq elektron tizimga o'tgach, o'z-o'zidan chiptachilarga ehtiyoj qolmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahrida avtobuslarda yo'lqira haqini naqd pulda to'lash amaliyotidan voz kechilgach, 800 dan ortiq chiptachi bilan tuzilgan shartnoma bekor qilingan. Bu shuncha xodimga to'lanadigan oylik maoshidan ham tejalishini anglatadi. Ammo masalaning boshqa tomoni bor. Shuncha xodimning taqdiri nima bo'ldi, ular ko'chada qoldimi? Transport vazirligi mutasaddirlarining aytishicha, chiptachilarga "Toshshahartransxizmat" AJ tasarrufidagi avtosoyarlarda mavjud vakant lavozimlar taqdim qilingan. Qabul qilganlar yangi lavozimda ishini davom ettiryapti.

Ayni paytda Samarqand, Qarshi, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Jizzax, Guliston, Olmaliq, Zarafshon, Yangiyo'l, Nukus va Qo'qon shaharlaridagi avtobuslarda elektron to'lov tizimi joriy etilgan. Ularda ATTO va boshqa kartalar orqali to'lovni amalga oshirish mumkin. Yaqin yillarda barcha hududlar jamoat transportida elektron to'lov tizimi amal qiladi.



**Ayni paytda Samarqand, Qarshi, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Jizzax, Guliston, Olmaliq, Zarafshon, Yangiyo'l, Nukus va Qo'qon shaharlaridagi avtobuslarda elektron to'lov tizimi joriy etilgan. Ularda ATTO va boshqa kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Yaqin yillarda barcha hududlar jamoat transportida elektron to'lov tizimi amal qiladi.**

rag'bat oshdi. Natijada ular sohaga katta qiziqish bilan kirib kelyapti. Hududlarda zamonaviy avtobuslar xarid qilish ko'payib, yo'nalishlarga chiqarilmoqda. O'tgan yili hududlarda jami 741 ta avtobus xarid qilindi, 275 ta avtobus xarid qilish uchun to'lovlar amalga oshirilgan. Joriy yil yanvar-mart oylarida yana 59 ta avtobus sotib olindi.

Masalan, o'tgan yilning yanvar oyida Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlar tomonidan 26 ta zamonaviy avtobus olib kelindi. Yil oxirigacha ularning qatoriga yana o'nlab avtobus qo'shildi. Bunday avtobuslar ichki saloni kengligi, yozda salqin, qishda issiq bo'lishi, zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangani odamlarga foydalanishda qulaylik tug'diradi. Aholi allaqachon zamonaviy avtobuslarga moslashib ulgurdi, endi kichik hajmdagi, isitish-sovitish imkoniyatlari bo'lmagan jamoat transporti insonlar uchun nafaqat noqulay, balki e'tirozlariga ham sabab bo'ladi.

Bu boradagi ishlar Nukus shahrida ham jadallashib bormoqda. Shaharda jami 15 ta avtobus yo'nalishi tashkil etilib, ularga 188 ta avtobus olib kelish rejalashtirilgandi. O'tgan yil boshida qiymati 11 milliard so'mlik dastlabki 12 ta "YUTONG" avtobuslari olib kelindi. Shundan so'ng birin-ketin mahalliy tadbirkorlar tomonidan Xitoy

ushbu transport vositasi ortiqcha shovqinsiz, ancha yengil harakatlanishi bilan afzallikka ega. Ayni paytda Toshkent shahrida uch yuzdan ortiq elektrobus harakati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda poytaxt jamoat transporti (avtobus) yo'nalishlarining 27 tasi to'liq elektrobuslardan iborat harakat tarkibiga o'tkazilgan. Elektrobuslar harakatlanayotgan yo'nalishlar tarmog'ining umumiy uzunligi 508 kilometr dan ortiqni tashkil etmoqda. Toshkent shahridagi barcha — 320 ta elektrobus tasarruf etilishi natijasida atmosferaga yiliga 15 ming tonna SO2 tashlanmalari qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Joriy yilda yana 200 ta elektrobus va ular uchun quvvatlash uskunalari xarid qilindi. Bu orqali poytaxtdagi mavjud avtobus yo'nalishlarining harakat tarkibi soni ko'paytirish va yangi tashkil etiladigan yo'nalishlarda tasarruf etish rejalashtirilgan.

Jamoat transportining ekologik toza turiga o'tish boshqa hududlarda ham faollashgan. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot

o'tgan yili amalga oshirilgan 510,5 million to'lovning 323,3 millioni transport kartalari, 53,5 millioni tarif rejalarini hissasiga to'g'ri keldi. Natijada jamoat transportida amalga oshirilgan to'lovlar ko'rsatkichi 2023-yildagiga nisbatan 52,6 foiz o'sgan.

Amaliyotda elektron to'lov tizimi qator afzalliklarga ega ekan ko'rindi. Shu bois, joriy yilning yanvar oyidan boshlab Toshkent shahrida avtobuslarda naqd pul qabul qilish amaliyoti to'xtatilib, to'liq elektron to'lov tizimiga o'tildi. Avvalroq bu haqda ogohlantirilganiga qaramay, ushbu xabar odamlar orasida keng muhokamalarni keltirib chiqardi. Oxirgi oylarda esa jamoat transportida to'lov tizimining to'liq elektron shakliga o'tgani eng ko'p tilga olinayotgan masalalardan biriga aylandi.

Bu borada odamlarning fikri ikki toifaga bo'lingan: biri elektron tizim ancha qulayligini aytadi, boshqalar elektron cheklarni olish uchun hali yetarlicha qurilmalar o'rnatilmaganini,



# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA

## O'ZBEK XOTIN-QIZLARINING O'RNI VA MAVQEI

## DUNYONI O'ZGARTIRADIGAN YANGI G'OYALARGA MUALLIFLIK QILA OLAMIZ



O'zbekistonni axborot texnologiyalari sohasidagi mintaqaviy markaz — IT xabga aylantirish, axborot texnologiyalari xizmatlari eksportini oshirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va bandligini ta'minlash jarayonida ayol-qizlar faolligini oshirish muhim masalalardan. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan yo'lga qo'yilgan loyihalar opa-singillarimizning dasturiy mahsulotlarni yaratishi hamda dasturchi sifatida shakllanishiga ko'maklashishga qaratilgan.

Sohada muvaffaqiyat qozonayotgan, nomdor kompaniyalarda faoliyat yuritib, yaxshigina daromad topayotgan, dasturiy ishlanmalari, innovatsion yechimlari orqali global muammolarni hal qilishga munosib hissa qo'shayotgan ayol-qizlar ko'pligi quvonarli. Nafaqat yurtimiz,

balki xalqaro miqyosda muvaffaqiyat qozonayotgan xotin-qizlar soni ortib borayotgani barchamizni, xususan, yoshlarni nihoyatda ruhlantiradi, axborot texnologiyalari sohasida ilg'or bo'lishga undaydi. Biz ana shunday xotin-qizlarning fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

Rahimaxon NO'MONOVA, International Coding Academy asoschisi, Toshkent shahridagi Inha universiteti dotsenti,

Myunster universiteti tadqiqotchisi:

— Men uchun axborot texnologiyalari shunchaki faoliyat emas, balki odamlar hayotini o'zgartiruvchi innovatsion yechimlar yaratish imkoniyatidir. U ta'limni yanada qulay, biznesni samarali va dunyoni texnologik jihatdan ilg'or qilish imkonini beradigan vosita.

Axborot texnologiyalariga qiziqishim maktab yillarida, texnologiya ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rganimda boshlangan. Raqamlashtirish nafaqat tendensiya, balki zaruratligini, ayniqsa, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlarida unga talab katta ekanini ko'rdim. Shu bois, dasturlashni o'rganma boshladim, ta'lim loyihalari ustida ishladim va o'zimning raqamli ta'lim platformam — International Coding Academy (xalqaro kodlash akademiyasi)ni yaratdim. Bu odamlarning raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirishiga yordam beradi.

Inson o'z ustida ishlar ekan, marraga yiqinchiliksiz yetay olmaydi. Menda ham nimadigir erishish imkonisizdek tuyulgan paytlar bo'lgan. Eng qiyini atrofingizdagi shubhasini yengish edi. Axborot texnologiyalari sohasiga yosh kirib keldim. Qiz bola bo'lganim uchunmi, avvaliga ko'pchilik jiddiy qabul qilmadi.

Axborot texnologiyalari erkaklar sohasi ekan, ta'lim raqamli o'zgarishlarga muhojir emasligi, ayollar uchun biznes yuritish qiyinligi haqidagi stereotiplar — bularning barchasi haqiqatdan mavjud edi. Lekin hamisha salohiyatimga ishonardim va erishgan natijalarim so'zimdagi ko'ra baland edi. Menga yordam bergan jihat — qat'iyat, hamfikrlarning qo'llab-quvvatlashi va texnologiya odamning jinsi hamda yoshidan qat'i nazar, hamma uchun ochiqlikni isbotlash istagi edi.

Nima bo'lishidan qat'i nazar, ishini oxirigacha yetkazish, so'nggi natijani ko'rish hayotiy yomayilmidir. Bunda menga hamisha intizom yordam bergan. Shuningdek, ilg'or texnologiyalar haqidagi bilimlarim rivojlanishiga ishtiroqimni yanada kuchaytiradi. Ish va hayotning to'g'ri muvozanati ham men uchun juda muhim. Zarur vaqtda dam olish, do'stlarim, oilam bilan vaqt o'tkazish va umuman ishdan, o'qishdan tanaffus qilishim kerakligini tushunaman.

Axborot texnologiyalari menga, avvalo, bebaho tajriba, yirik loyihalarda ishlash va dunyodagi iqtidorli odamlar bilan tanishish imkoniyatini berdi. Texnologiya tufayli nafaqat mavqega erishdim, balki boshqalarga yordam beradigan ta'lim platformalarini yaratishga muvaffaq bo'ldim. Inha universitetida bakalavr va AQSHning Illinois universitetida magistr darajasini oldim. Ko'nikma va bilimim haqiqatan nufuzli xalqaro universitetga o'qishga kirishim va yuqori akademik ko'rsatkichga erishishimda katta ta'sir ko'rsatdi.

Turli mamlakatlarda bo'lganman, mashhur universitetlarda o'qib, ishlaganman, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilganman. Har bir



tadbir — startapni ishga tushirish, hakatonlar tashkil etish yoki konferensiyalarda qatnashish — yangi bilim va ilhom baxsh etardi.

Yaqinda Toshkentda bolalar uchun hakaton uyushtirdim. Ko'zi chaqnab turgan 7-17 yoshli o'g'il-qizlar o'zining birinchi axborot texnologiyalari loyihalarini yaratayotganini ko'rish juda quvonchli edi. Bunday lahzalar bizni yangi bilim va ilhom baxsh texnologiya haqiqatan dunyoni o'zgartirishi va kelajakni yorqin qilishiga umidlantiradi. Eng muhimi esa, axborot texnologiyalarini o'rganish yoshga bog'liq emas.

Mentalitetimiz kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlar, o'zaro yordam kabi an'analariga boy. Shu bilan birga, jamiyatimizda qizlar ba'zan ayrim sohada ishlashga munosib ekanini bahs talab bo'lib qolmoqda. Biroq keyingi paytda ko'p narsa o'zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari sohasida o'zbek qizlari iqtidorli, qat'iyatli va maqsad sari intiluvchan mutaxassislar bo'lib tanilyapti. Ular murakkab texnologiyalarni o'zlashtiradi, startaplar yaratadi, xalqaro tanlovlarda qatnashadi va yirik kompaniyalarda ishlaydi. Har yili ular soni oshib bormoqda, bu odamni ruhlantiradi.

Dunyoda sohada muvaffaqiyatga erishgan ayollar ko'p. Texnologik startap asoschilaridan tortib, Google, Microsoft va boshqa gigant kompaniyalarning yetakchi ishlab chiquvchilari ayol ekaniga ko'plab misollar bor. Ularni birlashtiradigan asosiy omil — o'ziga ishonch, doimiy rivojlanish va qiyinchiliklar oldida taslim bo'lmaslikdir. O'zbek qizlari ham hech kimdan kam emas — biz ulkan salohiyatga egamiz va jahon miqyosida raqobatlasha olamiz. Qizlarimiz nihoyatda kuchli va dunyoni o'zgartiradigan yangi g'oyalarga mualliflik qila olishiga ishonaman.

Hozir International Coding Academy (xalqaro kodlash akademiyasi)ni faol rivojlantiryapman. Biz xalqaro kurslarni O'zbekiston bozoriga moslashtiramiz, raqamli o'qituvchi yaratamiz va talabalarga mutazam yordam beramiz. Loyiha va hamkorlikni kengaytirish eng katta rejalarimizdan biridir.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

## RAQAMLI OLAMDA “AYOL” YOKI “ERKAK” DEGAN TUSHUNCHA YO‘Q

Ra'no SIDDIQOVA, Plug and Play kompaniyasining hamkorlik bo'yicha menejeri:

— Axborot texnologiyalariga qiziqishim hozir hamma biladigan yo'nalish — raqamli texnologiyalar mashhur sohaga aylanishidan oldin boshlangan. Toshkent xalqaro Vestminster universitetini tamomlaganman. Faoliyatimni O'zbekistonning yirik uyali aloqa operatorlaridan birida boshlaganman. 2010-2011-yillarda raqamli texnologiyalar u darajada rivojlanmagan, mutaxassislar ham yetarli emasdi. Men kompaniyada kontent-provayderlar bilan hamkorlikda turli servislarini ishlab chiqib, qisqa raqam orqali odamlarga nima kerakligini aniqlashni yo'lga qo'ydim. O'sha paytda SMS xabar xizmatiga ehtiyoj katta edi. Keyin oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun imtihon javobini SMS orqali olish imkoniyatini yaratdik. 1-avgustda test topshirgan yigit-qizlar sinov natijasini bilish uchun 10-12 kun poytaxtda qolishi yoki uyiga borib yana qaytishi zarur edi. Bu loyiha ana shu ovoragarchilik va mushkulliklarga chek qo'ygan. Doim bu haqda faxrlanib gapiraman.

Keyinroq Buyuk Britaniyaning Global Custodian kompaniyasiga menejer bo'lib ishga kirdim. U yerda HSBC, Citi, JPMorgan Chase kabi dunyodagi yirik banklar bilan so'rovnomaga o'tkazar edik. So'rovnomaga asosida maxsus platforma orqali banklarning turli servislariga baho berilardi. Mening vazifam banklardan ma'lumot yig'ib, dasturchilar bilan so'rovnomani tahlil qilish edi. Biz Toshkentdan aoutsors jamoa sifatida ishlardik. O'shanda raqamli texnologiyalarning dunyo bo'yicha ahamiyati qanchalik kattaligini ko'rganman.

Shundan keyin Advantour turizm kompaniyasiga raqamli texnologiyalar va kontent jamoasini boshqarishga taklif qilindim. Bu kompaniya O'zbekiston haqida katta ma'lumot olish mumkin bo'lgan ishonchli resurs edi. Men shu kompaniyada ish boshladim. Jamoamiz bilan bitta veb-saytning o'zida bir oyda bir milliondan ortiq sahifa ko'rinishiga erishdik. Qizig'i shundaki, Google Ads (gugl reklamasi)ga pul, ortiqcha resurs ishlamaganmiz.



Jamoamiz kengayib bordi. Kompaniyaning yangi ofislari ochildi. Ishim shu darajada qiziq edi, raqamli texnologiyalar chegarasiz ekanini, bu insonga cheksiz imkoniyatlar bera olishini tushundim. Ishimga qattiq bog'lanib borardim. Bir muddat o'tib, raqamli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi Applied Labs kompaniyasiga bosh menejerlikka ishga taklif etildim. Kompaniyada O'zbekistonda hali mavjud bo'lmagan Shopify dasturchilarini yetishtirish loyihalarini yo'lga qo'ydik. Bu dastur o'zbekistonlik yoshlarning AQSH, Kanada va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi raqamli texnologiyalar bozorida ish topishi va katta maosh olishiga sababchi bo'ldi. Yordamimiz bilan 1,5 yilda 50 kishi dunyo bozorida AKT sohasida o'z ishini topdi.

Keyinchalik Plug and Play startap kompaniyasi O'zbekistonga kirib keldi. Uning jozibali jihati startaplar bilan ishlash edi. Chunki startaplar yangi innovatsiya va g'oyalarga beshik vazifasini o'taydi. Shu yo'nalishda salmoqli ish taklif qilinganida hech ikkilanmay qabul qildim. Oxirgi ikki yildan buyon mazkur kompaniyada hamkorlik bo'yicha menejer sifatida ishlayapman. Shu paytgacha biz uddalagan ishlar ichida FoundHER loyihasi alohida ahamiyatga ega. U ayollarning startaplarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Loyiha doirasida Markaziy Osiyo davlatlarida startapga asos solgan 10 ayol tanlab olindi. Uch oylik akseleratsiya (biznesni rivojlantirish bo'yicha intensiv kurs) o'tganidan keyin ularni Silikon vodiysiga yana to'rt kunlik

intensiv o'qish va investorlar bilan uchrashuvga olib bordik. O'zbek xotin-qizlarining hozirgi salohiyati va aqliy yuksalishini ko'rib, juda xursand bo'laman. Ayni paytda ularning daromadi 6-7 barobar oshgan. Buni ular akseleratsiya va Silikon vodiysida fikrlash tarzi o'zgariganiga bog'laydi.

Ba'zan raqamli texnologiyalar menga nima berdi, deb o'ylayman. Yotqirgan ishingiz orqali odamlarning hayoti ijobiy tomonga o'zgarayotganini ko'rsangiz, ishingizdan mamnunlik tuyasiz.

O'tgan yili TechWomen loyihasiga tanlab olindim. Bunda 21 mamlakattan bo'lajak liderlar 5 hafta davomida AQSHda tahsil oladi. Men ham shu tarkibga qabul qilindim. U yerda “Sizlarda qobiliyat bor, buni jamiyat rivojiga yo'naltirish kerak”, degan g'oya ilgari surildi. Biz — o'zbekistonlik 5 qiz autizmga erta tashxis qo'yilmasligi tufayli bolalarining 70 foizi jamiyatga qo'shilmasligi muammosini ko'tarib chiqdik. Bu muammoga yechim taklif qildik. Mazkur loyihani amalga oshirish uchun zarur mablag' — grantni yo'lga kiritganimiz juda quvonchli voqea bo'ldi.

Buni nima uchun gapirib beryapman? Raqamli texnologiyalar nafaqat yaxshi ish bilan ta'minlaydi, sayohat, yuqori maosh olishga

imkon beradi, balki insonlar hayotini yaxshi o'zanga burib, jamiyatga katta foyda olib kelishi mumkin. Ha, bu soha orqali ko'pchilikka yordam bera olasiz!

Ayni paytda autizm loyihasi bo'yicha ishlayapmiz. Kelgusida bu loyiha autizm tashxisi qo'yilgan minglab bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishga ishonaman.

Bu ishdan tashqari, Google'ning Women Techmakers ambassadoriman. Women Techmakers vakili sifatida 10 dan ortiq qizdan iborat jamoada ishlayman. Biz turli tadbirlar o'tkazamiz. 2023-yilda Toshkentda 400 ishtirokchini jalb qilib, katta tadbir tashkil etdik, qatnashchilarning 80 foizi qizlar edi. Ularga raqamli texnologiyalar olamiga kirish haqida ma'lumot berdik.

Bu yil shunday tadbirlarni Samarqand va Farg'onada o'tkazdik. Maqsadimiz — texnologiya sanoatidagi xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash. Chunki bu sohada ayollarning ishtiroki hali ham yetarli emas. Texnologiya faqat erkaklar uchun xos, degan stereotip mavjud. Biz raqamli dunyoda “ayol” yoki “erkak” degan tushuncha yo'qligi, u hammaga to'g'ri keladigan yo'nalish ekanini o'zimizning misolimizda ko'rsatishga harakat qilamiz.



**Nuqtayi nazar**  
O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish, jumladan, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, milliy iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni ro'yogga chiqarish faol investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liq. Buning ahamiyati mamlakatimizning jahon bozoriga integratsiyalashuvi bilan yanada dolzarblilik kasb etadi.



Shavkat HASANOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bugungi davr kechagisidan keskin farq qiladi. Xorijiy tajribalarga ko'ra, investitsiya nafaqat rekonstruksiya va ta'mirlash, balki yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishda ham eng muhim omil. Shu bois, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni jalb qilish va undan foydalanish hozirgi bosqichda

## BUGUNGI KARAJAT – ERTANGI DAROMAD

### TA'LIMGA AJRATILGAN INVESTITSIYA O'ZINI OQLAYDI

investitsiya jarayonining muhim qonuniyatiga aylanib bormoqda. Bu jarayon oliy ta'limda ham samarador vositalardandir.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksportni hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida investitsiyalarni jalb etish holati tanqidiy tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Mazkur to'plashlar jirojini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalarida xorijiy investitsiya va grant mablag'larini jalb qilish, shuningdek, ta'lim eksportini rivojlantirish bo'yicha qator choralar tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida o'tgan yildagi investitsiya dasturlari tahlil qilinib, istiqboldagi rejalar belgilab olindi.

2024-yilda institutda Janubiy Koreyaning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligi (MAFRA), Xalqaro bog'dorchilik instituti hamkorligida mamlakatda kartoshka urug'chilik tizimini rivojlantirish uchun kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan xalqaro loyiha doirasida tovar-moddiy boyliklar (laboratoriya jihozlari, transport vositalari, asbob-uskunalar va boshqa jihozlari) xaridi bo'yicha xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

Institut Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDS) bilan tuzilgan kelishuvga asosan, Zarafshon daryosi havzasida aholi farovonligini oshirish loyihasi doirasida ijtimoiy so'rovnomaga o'tkazdi hamda konsalting xizmatlari ko'rsatildi. Ushbu loyiha asosida institutga 10,5 ming dollar miqdorida xorijiy investitsiya kiritildi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Tokio qishloq xo'jaligi va texnologiya-

lar universiteti bilan “Samarqandda xurmo mevasini quritish orqali qishloq aholisi daromadlarini oshirish” loyihasi doirasida institut va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida integratsiyani amalga oshirishda xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatildi hamda 100 ming dollar qiymatida investitsiya o'zlashtirildi.

200 ga yaqin talabamiz iqtisodiyoti rivojlangan Germaniya, Buyuk Britaniya, Polsha davlatlariga haq to'lanadigan amaliyotga yuborildi. Natijada 972 ming dollarga teng xorijiy investitsiya olinishiga erishildi. Bundan tashqari, Latviya tashqi ishlar vazirligi grant dasturlari bo'yicha Bulduru texnikumi va institut tomonidan yo'lga kiritilgan grant dasturi BioDigiSkills — qishloq xo'jaligi uchun biotexnologiya va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish loyihasi doirasida xorijiy grant mablag'i olindi.

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Janubiy Koreya oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligi (MAFRA) kabi tashkilotlarning grant mablag'i hisobidan institut professor-o'qituvchilari xorijdagi hamkor universitetlarga stajirovka o'tash uchun yuborildi.

Loyihalarimiz qishloq xo'jaligida yetuk kadrlar tayyorlash, xorijiy ilg'or tajribalarni mamlakatimizda joriy qilishga qaratilgan. Bu borada davomli amaliy ishlar bajarilyapti. Masalan, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi Open Food Innovation University (OFINU) loyihasi doirasida Latviyada 10 nafar mutaxassis va professor-o'qituvchi malakasini oshirish rejalashtirilgan. O'quv jihozlari sifatida non ishlab chiqarish bo'yicha

laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yiladi. 2025/2026-o'quv yilidan boshlab oziq-ovqat innovatsiyalari bo'yicha yevropalik professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'qitishning yangi shakli amaliyotga joriy etiladi va uning me'yoriy-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqiladi.

Shuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi huzuridagi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limining granti yordamida institutimizning 1 xodimini Tokio qishloq xo'jaligi va texnologiyalar universitetida 3 yil davomida o'qitish uchun 60 ming dollar grant mablag'i ajratildi. Bundan tashqari, Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligi (ISM) dasturi doirasida professor-o'qituvchilar va talabalarni xorijdagi

turdosh oliy ta'lim muassasalarida qisqa muddatli tadqiqot o'tkazish va malakasini oshirishga yuborish hamda o'qitishni tashkil etish uchun 65 ming dollar grant mablag'i ajratildi.

2024-yil sarhisobiga ko'ra, institutga jami 2 million 293 ming 329 dollar qiymatida xorijiy beg'araz mablag' kiritildi. 2025-yilda ham institutda mazkur loyiha va dasturlarni izchil davom ettirish, ta'lim eksportini amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlab yuborildi. Jumladan, joriy yil yanvarda Erasmus+ dasturining OFINU loyihasi doirasida institutning 3 professor-o'qituvchisi Latviya hayot fanlari va texnologiyalar universitetiga malaka oshirishga yuborildi.



Talabalar amaliyotini xorijda o'tkazish bo'yicha loyiha tayyorlash maqsadida institutning 2 xodimi 14-19-yanvar kunlari Polshaning Ignacy Mossiski amaliy fanlar universitetida xizmat safarida bo'ldi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi tomonidan moliyalashtirilayotgan “Samarqandda xurmo mevasini quritish orqali qishloq aholisi daromadini oshirish mahalliy loyihasi” doirasida 2 professor-o'qituvchimiz 24-31-yanvar kunlari Tokio qishloq xo'jaligi va texnologiyalar universitetiga xizmat safariga yuborildi. Shuningdek, mazkur agentlik tomonidan moliyalashtirilayotgan loyiha doirasida Tokio qishloq xo'jaligi va texnologiyalar universitetining bir professor-o'qituvchisi mahorat daralarini o'tish uchun institutimizga keldi.

Janubiy Koreya bilan hamkorlik doirasida Xalqaro bog'dorchilik instituti prezidenti, professor Leo boshchiligidagi delegatsiya institutimizda mehmon bo'ldi. 5 professor-o'qituvchimiz esa Janubiy Koreyaning kartoshka urug'chiligiga oid tashkilotlariga malaka oshirishga yuborildi.

Xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan bu kabi loyihalar doirasida institutga jami 177 ming dollar miqdorida xorijiy investitsiya kiritildi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti xalqaro grant va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha seziqlari o'sishga erishmoqda. 2024-yilda jalb qilingan mablag' 2,29 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkichni 4,58 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Asosiy hamkorlar gatoriga Yaponiya, Shveysariya, Germaniya va Yevropa Ittifoqi kiradi. Xorijiy investitsiyalar tovar-moddiy boyliklar, konsalting xizmatlari va talabalarni xorijda amaliyotga yuborishga yo'naltirilgan.

Yurtimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyot muhitini shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizda ta'lim va tadqiqot uchun ajratiladigan mablag'lar kelajakda o'z mevasini berishga ishonamiz.

## Mulohaza

Nega bir paytlar egasining "pasporti" vazifasini o'tagan, mehnati qadrlangan do'ppi bugun odamlar ongida beo'xshov buyumga aylanib qolgan? Nimaga bo'yninga tatu tushirgan, sochini yashilga bo'yagan odamni ko'rganimizda, istalgan inson o'z xohishiga ko'ra kiyinishi mumkin, deymiz-u, qalampiruxsa do'ppi yigita ro'baro' kelganimizda bolani kamida didsizlikda ayblab, biz uchun notanish bo'lgan xarakteriga haybarkallachi, shuhratparast sifatlarini uyalmay yuklaymiz? Yoki nima uchun aynan hozirgi kunda ko'pchilik do'ppi odamni ko'rganda keragidan ortiq to'pori kishi, degan tasavvurga boradi.

# Do'ppi kiyisam...

## bugun mazax obyektiga aylanib qolmayaptimi?

Bugun do'ppi axloqiy inqiroz vositalaridan biriga aylanib ulgurgan, desak ishonmaysiz. Keling, bu g'apning isbotini quyida ko'rib chiqsak: aslida, odamni axloqsizlikdan tiyadigan kuchli vosita boshqa odamlarning unga munosabatidir. O'g'irlik qilmaysiz, chunki fosh bo'lsa, jamiyat nafatiga, la'natiga qolishdan qo'rqasiz, yolg'on gapirmaysiz, bilib qolishsa, obro'yingiz bir pul bo'lishidan cho'chisiz. Ana shu qo'rquv odamlarni axloqsizlikdan tiyadi. Menga odamlarning munosabati muhim emas, deydinganlar ham hech qursa o'z yaqinlari, do'stlari, tanishlarining ixlosini qaytara olmaydi.

Ammo axloqsiz amallar boshqacha ism bilan atalsa, jamiyatning o'zi buni odatiy hol o'laroq qabul qilsa, ijtimoiy nazorat ishdan chiqadi. Axloqiy jarayonlar majmuini tanib oluvchi immunitet hujayralari o'zga nomdagi axloqsizliklarni o'zini deb qabul qiladi. "Hayp" uchun yalang'och chiqishga ham tayyor biror bloger do'ppi kiyib, farosatsiz, dovdirdi personaj rolini qo'yilmaqom qilib o'ynab bersa, ko'rishlar sonini millionlardan oshirsa, odamlar buni qoramlaydi, aksincha, "kulgilli chiqibdi, qandini ursin" qabilida munosabat ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, har bir insondagi vijdon yukini yengillashirib qo'yadi. Ham tashqi, ham ichki nazarat o'lgach, odam har narsaga tayyor bo'ladi. Yuqoridagi g'apning o'zidan xulosa qiladigan bo'lsa, do'ppi odamning anqov qiyovasi bugungi media, ijtimoiy platformalar orqali ongimizda qaytadan va, albatta, xato qurilgan.

Omma do'ppi kiyuvchilar deganda, oq ko'ylak va bo'yinbog'li safsataboz bir toifani anglashi tobora ravshanlashib borayotganini nosog'lom munosabatlar orqali oshkor etib qo'ydi. Bir zamonlar hurmat, e'tiqod va qadriyat timsoli bo'lgan do'ppi "merov", "qishloqi" ma'nolarini tashiydigan mazax obyektiga aylandi va bu jamiyatdagi mazax darajasiga ko'tarildi. Ya'ni endi 15-35 yosh oraliqidagi istalgan kishi do'ppi kiyishga iymonli bo'ldi, negaki odamlar uning xarakteriga nisbatan noto'g'ri xulosa chiqarib qo'yishdan qo'rqdi.

Bittagina bosh kiyimga shuncha g'alvami deb kimlarni esa qotirar, ammo o'sha kichik qalpoq shu qadar katta tarixga guvoh bo'lganki, uning qiymatini fabrikalarda chiqayotgan hech bir "brend" kiyimlar bosolmaydi.

### Nega insoniyat chiroyli yashashga intiladi?

Insoniyat ilk davrlardan qunung asosiy qismini muayyan faoliyat bilan shug'ullanib o'tkazgan, beto'xtov mehnat qilgan. Shu kundalik yumushlar oraliqida doimiy foydalaniladigan buyumlarga o'z avlodlariga uni qanday buyumligini tushuntirish uchun maxsus belgi qo'yib yashashga uringan va natijada asrlar o'tib, mehnat turlari rivojlangach, buyumlar badiiy

### Etnik kelib chiqishni ko'rsatadigan o'ziga xos "hujjat"

Do'ppining afzalliklari, tarixi unga doir rivoyatlar o'ylaganimizdan ancha ko'p. Do'ppilarga o'xshash bosh kiyimlar qadimdan mavjud bo'lgani haqida bilvosita haykaltaroshlik namunalari, devoriy suratlari, terrakota haykallari hamda Sharq miniaturalaridan bilish mumkin. Dastlabki do'ppilar shakli o'tkir uchli qilib salla bilan kiyishga mo'ljallab kizagi

keng jiyakli qilib tayyorlangan. XX asrning 20-yillaridan do'ppi shakli o'zgaradi: tepasi dumaloq yoki murabba shakliga ega bo'ladi, kizakdagi jiyagi ingichkalashadi.

Ilgari har bir mintaqaning do'ppilari rangi, dekoratsiyasi va ishlab chiqarish texnikasi bilan ajralib turgan. Do'ppi orqali egasining qaysi viloyat va hatto qishloqdan ekanini aniqlash mumkin edi. Ya'ni do'ppi egasining etnik kelib chiqishini ko'rsatadigan o'ziga xos "hujjat" bo'lgan.



Har bir do'ppidagi gul va naqshlar o'z ma'nosiga ega. Buni esa hammamiz ham anglab yetavermaymiz. Bir qarashda o'zimizning ko'ringan va bosh kiyim bizni tarix bilan yuzlashiradi. Millatimizning milliy ramzi bo'lgan do'ppilarimizni farqlay oladigan kishilarga o'zi uchun munosibini tanlab oladi. Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz do'ppilarga juda ko'p ma'no-mazmuni singdirgan bo'lib, do'ppidagi biror qism, biror nuqta uchun shunchaki kiritilgan emas.

Masalan, san'atshunos Muhammad Fozil do'ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta'minlovchi homila bilan bog'liq deb

hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do'ppidagi qalampirunchoq tasviri do'ppi egasini turli balo-qazolardan asrovchi himoya vositasi bo'lgan, deb ta'kidlaydi. Aynan shu sababga ko'ra, vodiya erkaklarining do'ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan. Erkaklar har qanday holatda: ishda, ibodat paytida, ovqatlanishda, ko'chada, bayram va sayillarda, hatto uxlaganida ham boshida do'ppi bo'lishi lozim edi.

anglatadi. Bodomnuxsa naqsh oldidagi dumaloq belgilar orqali nechta farzandi borligini aniqlash mumkin bo'lgan. Kichik shakl go'dak yotadigan beshik. Ustidagi nuqta beshikka nur sochayotgan manbani anglatgan. Kattasi ham beshik. Lekin u bu dunyoni tark etayotgan kishining belgisidir. Ichkaridagi nuqta esa vafot etgan kishining so'natog'ini bildiradi. Bosh kiyimini teng qismlarga ajratadigan to'rtta qismi insonni dunyoning turli burchaklaridan keluvchi yovuz kuchlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Do'ppi asosidagi qora rang bo'shliq va zulmatni anglatadi, bosh kiyimning pastki qismidagi mehrob ko'rinishiga ega o'n olita element hayot va o'limning davriylik xarakterini anglatadi. Afsonaga ko'ra, bu elementlar boylarni jalb qiladi va hayotiy g'ayratni ta'minlaydi. Tasavvur qiling-a, birgina do'ppida shuncha sir yashirin.

### Do'ppi kiyish — madaniyatni saqlashga bo'lgan ongli intilish

Ayollar do'ppilarini bezashda asosan, gullar, mevalar va qushlardan foydalaniladi. Gul naqshlari orasida keng tarqalgani atirgul, gulsafar, chinnigul, lola, gultojxo'roz, olma gullari va boshqalar, mevalar orasida esa anor, olcha va gilos, bodom va qalampir tasvirlari hisoblanadi. Gullar ichidagi bezaklar, ayniqsa, ehtiyoqlik bilan ishlanadi. Qushlar ham bezakning asosiy naqshini tashkil qilishi mumkin. Asosan, bu ustovqur, xo'roz, bulbul tasvirlaridir. Hunarmand ayollarning go'zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandlikdan eng yuqori san'at darajasigacha ko'taradi.

Qisqa qilib aytganda, o'zbek do'ppisi bezagining barcha elementlari — rangi, chiziq, rasmlari muhim ma'no yuklamasiga ega bo'lib, ko'pincha hayot va o'lim, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon, egzulik va yovuzlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek do'ppilari haqli ravishda butun dunyoda talabga ega. Chet ellik sayyohlar bunday bosh kiyimlarni g'ayrioddiy yodgorlik sifatida sotib oladi, aksariyat insonlar hatto ular bilish o'z uylarini bezaydi.

Oldinlari ba'zi holatlarda to'y tayin qilindi, kuoyv muayyan sabablar bilan o'z nikoh to'yida qatnasha olmasa, kelin uning do'ppisi yoki pichog'iga nikoh qilingan. Lekin davrlar o'tishi bilan bosh kiyimning asl ma'nosi unutilib, maqola boshida yozg'irganimizdek, oddiy maishiy mazmunda saqlanib qoldi. Aniqliq, hozirgi "bachkana" so'zi tashuvchi holatga keldi.

O'zbekistonda azaldan san'at yuksak qadrlangan, hunarmandlar e'zozlangan, jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lgan. Sanoatning gullab-yashnashi amaliy san'atga vaqtinchalik soya solgan bo'lsa-da, yaqin yillarda tashkil qilinayotgan xalqaro va mahalliy ko'rgazmalar evaziga u ikkinchi hayotga ega bo'ldi. O'ziga yillar mobaynida do'ppining bir necha yuzlab turini o'zida jamlagan amaliy san'at namoyishlari, "Party"lar muvaffaqiyatli o'tkazildi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ziyoli qatlam do'ppi kiyib sahifalarga joylash va boshqa turli feshmobar, qiziqarli chellenjlar amalga oshirib, qolganlarni ham bunga targ'ib etdi. Hatto yo'lda mabodo mudrab qolsa, yengil tebranish bilan haydovchini uyg'ota oladigan "aqli" do'ppilar ham ixtiro qilingandi.

Aynan do'ppiga doir an'anaviy didaktik ruhdan yiroq, zamonaviy, kreativ yondashilgan sifatlilik kontentlar "haypajor"larning betuturiq videolarini birma-bir "singdirayotgan" pallada birdan to'xtab qoldi, o'sha paytdagi didsizlik avj olgan og'ir vaziyat taqozosi bilan tug'ilgan yuzlab bugun negadir so'ndi. Aslida, hozir mediamakonda otni qamchilab qolishning eng qulay fursati.

Prezidentimiz joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqot qildi. Videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Faol yoshlar bilan kechgan muloqotda tomoshabin uchun foydali, tariximiz va kelajagimiz, qadriyatlarimiz xususida yangi avlod uchun manfaatli bo'ladigan mediamahsulotlar, yengil ma'no tashuvchi rubrikalar tayyorlashda jonbozlik ko'rsatadigan yoshlarga imkoniyat berishini ta'kidlab, aynan shu kabi foydali kontentlarni boshlash uchun Yoshlar ishlari agentligi 100 million so'mgacha grantlar berishini e'lon qildi. Xuddi shunday tashabbuslar bilan amaliy san'atga doir zerikarli bo'lmagan, bugungi davr ruhi uyg'unligida suratga olingan hujjatli, qisqa metrajli filmlar, klipmlarni ko'paytirish lozim. Hech yo'q, do'ppi vositasida qishloq odamlarini o'lguday go'l, ahmoq qilib ko'rsatayotganlarning "mag'zava" kontentlarini e'tiborsiz qoldirish zarur.

Milliy siyosatda merosning qiymati va an'anaviy madaniy qadriyatlar, shuningdek, hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash har doim ustuvor o'rin egallashi dardkor. An'anaviy hunarmandlikning tiklanishi, jumladan, do'ppi kiyish ham O'zbekiston madaniyatini saqlashga ongli intilishning bir qismidir.

Azizbek YUSUPOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## MEHMION MAMNUN BO'LISHI UCHUN MEZBON MUNOSIB BO'LISHI LOZIM



Qadriyat

Jajji qizaloq momosining yonida o'tirganicha ilk bor kashta tikishni o'rganarkan, hali javobi topilmagan savollari anchagina. Keksa ayolning mohir qo'llari bilan oddiy matoda san'at asari yaratilishi u uchun qiziqarli edi. Momosi avval oq matoga qalam bilan tajribali rassomlar kabi ajoyib gullar tasvirini chizar, so'ng qo'lga igna olib, turli ranglarga bo'yalgan iplar bilan gullarga chiroy baxsh etardi.

Sabr talab etadigan va zerikarli ko'ringan bu mehnatning bir zavqli tomoni bor ediki, qizaloqni yanada o'ziga jalb qilardi. Kimyo momo odatiga ko'ra har safar qo'lga igna olib ishga kirishdimi, albatta, qo'shiq xirgoyi qilishni boshlardi. Uni eshitgan kishi bexosdan qadim o'tmishga sayohat qilganini sezmay qolardi. Ayniqsa, o'zi yoshligida guvohi bo'lgan qahatchilik, qatag'on davrlarni qo'shiq qilganida, ko'zga yosh kelmasdan iloj yo'q edi.

Kimyo momo hunarli inson hech qachon xor bo'lmasligini ko'p uqtirar, yo'qchilik paytlari ham kashta va liboslar tikish o'rtidan ro'zg'or tebratganini aytardi. Biror ismi o'rganishi nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar uchun ham

muhimligini bot-bot takrorlardir. Shu sabab bo'lsa kerak, nabira qizlarini o'zi shogirdlikka olib, mehnatga o'rgatardi.

Tug'ilib o'sgan onadoni ko'hna Kesh markazidagi Oqsaroy maydoni atrofida bo'lgani bois, yetti yoshli Dilorom momosi tikkan turli do'ppilar va boshqa buyumlarni sotish uchun o'sha vaqtdagi Chorsu bozoriga olib chiqardi. Qo'l mehnati ila tikilgan bosh kiyimlarni tezda sotib, uyiga mamnun kirib borardi. Bu ishi momosi tomonidan rag'batlantirilmasdan qolmasdi. Bir kuni yosh qizaloq qo'lida buyumlarni ko'targancha bozor tomon borarkan, oldidan uch-to'rt kishi chiqib, uning qo'lidagi narsalarga qiziqib qoldi.

Ammo qizcha ularning nima deyahotganini, qaysi tilda so'zlashayotganini bilmasdi. Bir ozdan so'ng tarjimon kelib, undan mehmonlar buni sotishni so'zlashayotganini aytib qoldi. U rozi bo'ldi. Shu kuni savdosi ancha barakali bo'lgandi. Shundan so'ng ko'proq xorijdan kelgan mehmonlarga sotadigan bo'ldi. Faqat ular bilan subhatlashish muammo tug'dirardi. Tirishqoq qizcha tezda buning ham uddasidan chiqishga harakat qildi. Ingliz tilini imkon darajasida o'rganishga intildi.

U paytlar hozirgidek imkoniyatlar qayda edi, — deydi Dilorom opa Jo'rayeva. — Maktabimizda ingliz tilini biladigan ustozlar sanoqli bo'lgan. Shu sabab mustaqil o'rganishga intilganman. Ota-onam menga ishonch bildirib, qo'llab-quvvatlab turgandi o'shanda. Boisi, Shahrisabzda o'sha paytlari ham xorijdan keluvchilarning keti uzilmasdi. Milliy buyumlarimizga, asosan, mehmonlarning qiziqishi yuqori bo'lgan. Ular bilan muloqot qilish uchun esa til bilish lozim edi. Keyinchalik ingliz tilini o'zlashtirib olgach, bu borada muammo qolmadi. Shundan so'ng o'zim bemalol milliy liboslarimiz borasida chet elliklarga ma'lumot beradigan, savdolashadigan bo'ldim. Gohida tikkan do'ppilarimizni aylantirib tomosha qilib ko'risharkan, o'zimiz qo'lida tikkanimizga ishonishmasdi. Shunday paytlarda yarim tayyor do'ppini qo'limga olib, ularning ko'z o'ngida tikish jarayonini ko'rsatib berardim. Umuman olganda, milliy liboslar ustasi bo'lishimda momomning xizmati katta.

Bugungi kunda Shahrisabz shahrida yetakchi hunarmandlar qatorida tilga olinadigan Dilorom opa viloyat, respublika miqyosida o'tkazilgan qator tanlovlarda faxrlari o'rinlarni qo'lga kiritib kelmog'ida. Bundan tashqari, 50 dan ortiq shogird tayyorlab, ularning o'zini o'zi bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shgan. Ayni paytda ham 10 nafar xotin-qizga kasb sirlarini o'rgatish bilan band.

Yoshim oltmish beshga kirdi, — deydi D.Jo'rayeva. — Lekin hamon mehnatdan, asl milliy liboslarimizni targ'ib qilishdan charchamayman. Asosan, xotin-qizlarning tarixi ming yillarga borib taqaladigan milliy liboslarini tikish bilan shug'ullanib kelaman. Kim nima desa desin-u, lekin o'zimizning asl kiyimlarimizga yetmaydi. Mana, misol uchun biror qizning adras kiyganini ko'rgan kishi ko'zi quvnaydi. Yoki boshida do'ppi kiyib yurgan yigitning chiroyni ko'rib, havasining ortadi. Bilsangiz, odamning kiygan libosida ham gap ko'p. Gohida o'ylanib qolamanda. Nega bulardan yoshlarimiz faqatgina

dan ortiq shogird tayyorlab, ularning o'zini o'zi bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shgan. Ayni paytda ham 10 nafar xotin-qizga kasb sirlarini o'rgatish bilan band.

Yoshim oltmish beshga kirdi, — deydi D.Jo'rayeva. — Lekin hamon mehnatdan, asl milliy liboslarimizni targ'ib qilishdan charchamayman. Asosan, xotin-qizlarning tarixi ming yillarga borib taqaladigan milliy liboslarini tikish bilan shug'ullanib kelaman. Kim nima desa desin-u, lekin o'zimizning asl kiyimlarimizga yetmaydi. Mana, misol uchun biror qizning adras kiyganini ko'rgan kishi ko'zi quvnaydi. Yoki boshida do'ppi kiyib yurgan yigitning chiroyni ko'rib, havasining ortadi. Bilsangiz, odamning kiygan libosida ham gap ko'p. Gohida o'ylanib qolamanda. Nega bulardan yoshlarimiz faqatgina

dan ortiq shogird tayyorlab, ularning o'zini o'zi bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shgan. Ayni paytda ham 10 nafar xotin-qizga kasb sirlarini o'rgatish bilan band.

Yoshim oltmish beshga kirdi, — deydi D.Jo'rayeva. — Lekin hamon mehnatdan, asl milliy liboslarimizni targ'ib qilishdan charchamayman. Asosan, xotin-qizlarning tarixi ming yillarga borib taqaladigan milliy liboslarini tikish bilan shug'ullanib kelaman. Kim nima desa desin-u, lekin o'zimizning asl kiyimlarimizga yetmaydi. Mana, misol uchun biror qizning adras kiyganini ko'rgan kishi ko'zi quvnaydi. Yoki boshida do'ppi kiyib yurgan yigitning chiroyni ko'rib, havasining ortadi. Bilsangiz, odamning kiygan libosida ham gap ko'p. Gohida o'ylanib qolamanda. Nega bulardan yoshlarimiz faqatgina

turmush qurayotgan paytlari bir kun yoki biror marosimda foydalanishadi-da, keyin eslariga ham kelirishmaydi?

Ilgari toza ipak matodan har bir hududga moslab kiyimlar tikilgan. Misol uchun, Shahrisabz va Kitob boshqa joylarga nisbatan ancha salqin bo'lgani bois, bir oz yorqinroq ranglardan foydalangan. Cho'l tomonlarda esa, aksincha, quyosh nurini qaytaradigan oq rang urf bo'lgan. Shuni erkaklar kiyib yuradigan do'ppidan ham bilib olish mumkin.

Yaqinda xorijlik bir mehmon o'zimiz tikkan Shahrisabz do'ppisidan qiziqib sotib oldi. Boshiga qo'ndirib, zavqlanganini ko'rsangiz edi. Shunda u do'ppining tarixi haqida so'rab qoldi. Men buning tikilishini, asl negizi aynan shu ko'hna Keshga bog'liqligi borasida g'ururlanib gapirib berdim. To'satdan atrofga qarab: "Nega unda buni shahrisabzlik yigitlar kiymayapti", deb so'rab qolsa bo'ladimi? Qanday javob berishni ham bilmay qoldim. Chindan ham, yoshlar do'ppi kiyamay qo'ydi.

Milliy liboslar ustasi Dilorom opa hunarmandlar sulolasining uchinchi avlodi hisoblanadi. U ayni paytda Oqsaroy maydonida o'z ustaxonasida faoliyat yuritish bilan birga kasanachilik asosida 20 nafar ayolning uyida

o'tirib, daromad topishga sharoit yaratdi. Jumladan, xotin-qizlar Dilorom opaning buyurtmasiga ko'ra, aynan erkaklar do'ppisini yarim tayyor holda tikib, oyiga o'rtacha bir yarim million so'mga yaqin mablag' ishlab topmog'ida. Bundan tashqari, opaning turli ko'rinishda tayyorlangan milliy liboslar ham o'z xaridoriga ega. O'zi esa oyiga o'rtacha o'tiz-qirg' million so'm daromad topmog'ida.

Shukrki, shu hunarmand ortidan birovdan kam bo'lganimiz yo'q, — deydi opa. — Halol mehnat qilib, uch o'g'il, ikki qizni voyagga yetkazdik. Farzandlarimizni oliy o'quv yurtlarida o'qitib, malakali muxassis bo'lishi uchun imkoniyat yaratdik. Hozir kelinlarim mening asosiy yordamchim. Bir paytlar bu kasbni momomdan o'rganib bo'lsam, hayot o'zim ham buvi bo'lib, nabiralaringa o'rgatmoqdaman. Ularning qiziqishlari yuqori. Azaliy qadriyatlarimizni kelajak avlod vakillariga yetkazish burchimiz. Bugun har bir soha vakillari uchun bunday qulayliklar yo'q edi. Hozir kelgan har bir xorijlik mamnun bo'lib ketmog'ida. Shunday ekan, biz ham shunga munosib mezbon bo'lishimiz lozim.

Dilorom opa o'zi aytganidek, milliy liboslarni targ'ib qilish uchun harakatdan to'xtatgani yo'q. Ayni paytda ham mamlakat miqyosida tashkil etiladigan turli festivallarda ishtirok etib, ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Bundan tashqari, u hozir yangi lo-yiha ustida ishlamoqda. Ta'kidlashicha, mazkur loyiha amalga oshishi natijasida yana yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan birga, milliy liboslar targ'iboti oshadi. Har bir xorijlikni maftun etuvchi yangi dastur ishga tushadi.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalar tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlilik chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy